

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK 796.5 M-92**

**MUHIDDINOV RUSTAM SHOVQIDDINOVICH**

**O'ZBEKISTON XUDUDIDAGI EKOTURISTIK RESURSLAR TURLARI  
VA ULARDA TURISTIK MARSHRUTLARNI TASHKIL ETISH**

**5A610302 – Turoperatorlik xizmatini tashkil etish**

**MAGISTR  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.n. Raximov Z.**

**Samarqand-2015**

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB. O'ZBEKISTON XUDUDIDAGI EKOTURISTIK RESURSLAR TURLARINING TAJSIFI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Ekoturistik resurslarning o'ziga xos xususiyatlari.....	9
1.2. Ekoturistik resurslarning asosiy turlari .....	14
1.3. O'zbekistonning ekoturistik salohiyati .....	26
1-bob bo'yicha xulosa.....	35
<b>2-BOB. O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI EKOTURISTIK RESURSLARDAN FOYDALANISH XOLATINING TAHLILI.....</b>	<b>38</b>
2.1. Samarqand turizm xizmatlar bozorining tahlili .....	38
2.2. O'zbekistondagi asosiy ekoturistik hududlar va ulardan foydalanish darajasi tahlili .....	47
2.3. O'zbekiston hududida mavjud ekoturistik mashrurlarning taxlili .....	55
2-bob bo'yicha xulosa.....	62
<b>3-BOB. O'ZBEKISTON XUDUDIDAGI ASOSIY EKOTURISTIK RESURSLAR ASOSIDA TURISTIK MARSHRUTLARNI TAKLIF ETISH.....</b>	<b>64</b>
3.1. Yangi ekoturistik turmarshrutlar yaratish imkoniyatlari .....	64
3.2. Turistik marshrutlar tashkil etishning iqtisodiy asoslari.....	68
3.3. Ekoturistik resurslar asosida turistik marshrutlarni taklif etish .....	73
3-bob bo'yicha xulosalar.....	79
<b>XULOSA .....</b>	<b>81</b>
<b>TAKLIFLAR .....</b>	<b>83</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>85</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Bugungi kunda dunyo turizmi rivojlanishi rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon o‘zgarmokda. Bu o‘rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O‘rtta Sharq hamda G‘arbiy Afrika mintaqalaridagi mamlakatlar yetakchilik qilmokda. Rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyasini asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma’lumotlariga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20% qamrab olgan, o‘sish sur’ati esa umumi turizm industriyasining o‘sish sur’atidan 2-3 marotaba oshib ketgan. Ayni paytda, jahon turizmi sanoatida xalqaro turizmdan tushgan daromad avtomobil, neft gaz ishlab chiqarish sanoatidan keyin 3-o‘rinni egallaydi.

Mamlakatimizda ham xizmatlar sohasini, ayniqsa turizm xizmatlarini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Karimov I.A. mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlaganidek – “...barchamizga ayonki, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta’minalash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda. 2014 yilda bozor xizmatlari ko‘rsatish hajmi 15,7 foizga o‘sdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 53 foizdan 54 foizga oshdi. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 50 foizidan ortig‘i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish –ustuvor vazifamizdir” - mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasи. Halq so‘zi, 2015 yil 17 yanvar №11

Demak, mamlakatimizda xizmatlar sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ekan, turizm xizmatlarini ham yanada rivojlantirish, turizmning yangi turlarini shakllantirish, ayniqsa mamlakatimizning turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda ekoturizmni rivojlantirish dolzARB masalalardan biridir.

O‘zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi, nafaqat ma’naviy, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatimizga jalg etish, noyob o‘simpliklar va hayvonot dunyosini saqlash va ko‘paytirish muammolarini hal qilishga, balki shu bilan birga iqtisodiy masalalarni – mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilash, ularni yangi ish joylari bilan ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

Ekoturizmning ilmiy-nazariy asoslarini va uning tabiiy geografik jihatlarini ochib berish, O‘zbekiston tabiatini ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish shu kunning dolzARB masalalaridan hisoblanadi.

Respublika milliy iqtisodiyotini shakllantirish va uning barqarorligini ta’minlash mamlakatda o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar va belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni hayotga tadbiq etish natijasida amalga oshirilmoqda.

Ekoturizmning rivojlanishi dastavval mamlakatda mavjud bo‘lgan ekoturistik resurslar va ularning turlari hamda ulardan ekoturistik marshrutlar tashkil etishga bog‘liqdir. Shundan kelib chiqqan holda magistrlik dissertatsiyasining mavzusi tanlangan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Turizmning ekologik yo‘nalishi dunyoda avvalo amaliy ishlardan boshlangan. 1972 yildan boshlab Skandinaviya mamlakatlarida fuqarolarga kitlarni tomosha qilish va o‘rganishni tashkil qilish orqali yig‘ilgan mablag‘ni ularni muhofazasi uchun sarflashgan. Keyinchalik ekoturistik marshrutlar ishlab chiqilib ular Yevropaning boshqa mamlakatlariga, Osiyo, Shimoliy Amerika davlatlariga yoyilgan. Ekoturizmning mustaqil turistik yo‘nalish sifatida rivojlanishi XX asr oxiri va XXI asrning boshlariga to‘g‘ri keldi. Lekin hozirgi kunda ekoturizmning umumiy e’tirof etilgan nazariyasi va amaliyoti yetarli darajada shakllanmagan. V.V.Xrabovchenko (2003), T.V.Bochkareva

(2003), L.I.Yegorenkov (2003), A.Taksanov (2005), N.Tuxliyev va T.Abdullayeva (2006), R.Haitboyev (2013), I.S.Tuxliyev (2010), F.Kamilova (2007) kabi tadqiqotchilarning ishlari ko‘proq ekoturistik marketing, menejment, ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda tabiiy turizm bilan ekoturizm o‘rtasida aniq bir chegara o‘rnatilmagan. O‘zbekiston hududidagi ekoturistik resurslar turlari va ularda turistik marshrutlarni tashkil etish hali ilmiy-amaliy jihatdan to‘liq o‘rganilmagan.

**Tadqiqot maqsadi** – Ushbu magistrlik dissertatsiyasining maqsadi mamlakatimizning ekoturistik salohiyatini, O‘zbekiston hududidagi ekoturistik resurslar turlarini o‘rganish va ulardan yangi turistik marshrutlar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari.** Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan va amalga oshirildi:

- ekoturistik resurslarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;
- ekoturistik resurslarning turlarini ilmiy adabiyotlar sharhi orqali tahlil qilish;
- O‘zbekistonning ekoturistik salohiyatini o‘rganish;
- O‘zbekiston ekoturistik xizmatlar bozorining tahlili;
- O‘zbekistondagi asosiy ekoturistik xududlar va ulardan foydalanish darajasini aniqlash;
- O‘zbekiston hududida mavjud ekoturistik marshrutlarning taxlili;
- yangi ekoturistik turmashrutlar yaratish imkoniyatlarini baholash;
- turistik mashrutlar tashkil etishning iqtisodiy asoslari;
- turistik mashrutlardan samarali foydalanish kabilari.

**Tadqiqot ob’ekti va predmeti.** Mazkur dissertatsiya ishining tadqiqot ob’ekti –O‘zbekistonning tabiat yodgorliklari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlari va tabiiy komplekslari, bunyod etilgan madaniylashtirilgan ob’ektlari, **predmeti** esa– ekoturistik resurslarning turlari, ekoturistik imkoniyatlari va turistik marshrut ishlab chiqish.

**Tadqiqot metodlari.** Magistrlik dissertatsiyasida iqtisodiy – matematik

usullar, iqtisodiy tahlil, klasterli tahlil, statistik tahlil, korallesion tahlil kabi usullardan keng foydalanilgan.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ekoturistik resurslarning o‘ziga xos xususiyatlari yoritildi;
- ekoturistik resurslarning turlarini tasniflash bo‘yicha takliflar kiritildi;
- O‘zbekistondagi asosiy ekoturistik xududlar va ulardan foydalanish darajasi aniqlandi;
- O‘zbekiston hududida mavjud ekoturistik marshrutlarning tahlili asosida yangi ekoturistik turmarshrutlar ishlab chiqildi;
- turistik marshrutlar tashkil etishning iqtisodiy asoslari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot orqali olingen ilmiy xulosa, natijalar, kartografik va elektron axborot materiallari, rejalahtirilgan ekoturistik marshrutlar va ularni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tabiiy geografik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Undan joyning regional va mahalliy tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ekoturistik marshrutlarni o‘tkazish, ularni olib borish hamda boshqa turistik marshrutlar bilan tabiat-jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni buzmagan holda birga tashkil etish, ekoturistik munosabatlarni tartibga solish huquqiy mexanizmini yaratish, turizm va rekreatsiyaga oid davlat konsepsiysi, dasturlari va loyihalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining sinovdan o‘tganligi.** Ushbu mavzu doirasida bajarilgan ishlar respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va chop ettirilgan. “Turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida “O‘zbekistonda ekoturistik marshrutlarni shakllantirish imkoniyatlari”, “Turistik xizmatlar sohasini tadbirkorlik klasterlarini shakllantirish orqali shakllantirish masallaari” nomli maqolalar chop etildi.

**Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Mavzu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonun va me'yoriy hujjatlaridan "Turizm to'g'risida"gi qonun, "O'zbekturizm" MKsining tashkil topishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // "Xalq so'zi", 1992 yil 27 iyul, "Buyuk Ipak yo'liini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. // "Xalq so'zi", 1995 yil 3 iyun., Durovich A. P. Marketingovie issledovaniya v turizme: Ucheb. posob. — SPb.: Piter, 2008. — 384 s, Lennon Dj. D., Smit X., Kokerell N., Tryu D. Upravleniye industriyey turizma. Luchshiy opit deyatelnosti natsionalnix organizatsiy i agentstvo po turizmu. – M.: «Gruppa IDT», 2008. – 272 s., Timoxina T.L. Organizatsiya priyema i obslujivaniya turistov: uchebnoye posobiye. – 3-ye izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2008. – 352 s., Skobkin S.S. Menedjment v turizme: ucheb. posob. – M.: Magistr, 2007. – 447 s., Karimov I., Axmadxo'jayev R. Turizmda kommunikatsiya. - T.: TDIU, 2007, - 180 b. kabilar o'rganildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar va foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, uning o'r ganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili, tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi ko'rsatilgan.

Birinchi bobda iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlar, diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni jadal davom ettirishda O'zbekiston hududidagi ekoturistik resurslar turlari, ekoturistik resurslar turlarining tasniflanishi, O'zbekistonning ekoturistik salohiyati kabilar ilmiy adabiyotlar sharhi asosida yozilgan.

Ikkinci bobda O'zbekiston hududidagi ekoturistik resurslardan foydalanimish holati, O'zbekiston ekoturistik xizmatlar bozorining tahlili, O'zbekistonning asosiy

ekoturistik hududlar va ulardan foydalanish darajasi, O‘zbekiston hududidagi mavjud ekoturistik marshrutlarning tahlili amalga oshirilgan.

Uchinchi bobda O‘zbekiston xududidagi asosiy ekoturistik resurslar asosida turistik mashrurlarni taklif etishga doir tavsiyalar berilgan.

Ishning xulosa va takliflar qismida tadqiqot natijasida olingan asosiy xulosalar va nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalar berilgan.

## **1-BOB. O'ZBEKISTON XUDUDIDAGI EKOTURISTIK RESURSLAR TURLARINING TAVSIFI**

### **1.1. Ekoturistik resurslarning o'ziga xos xususiyatlari**

Ekoturizmni birinchi bo'lib o'rgangan V.V.Xrebovchenkoning fikricha, "ekoturizm" so'zining tushunchasi – "ekologik turizm" so'zining qisqartirilgani, lekin uning ishlatalishi ekologiya fani nuqtai nazaridan unchalik to'g'ri emas" deb yozgandi.

Ekoturizmning birinchi va ancha to'g'ri tushunchasini G.S.Gujin, M.Yu.Belikov va Ye.V.Klimenko 1997-yilda bergen: "Ekoturizm asosida tabiatni muhofaza etish tashvishlari yotadi". Bunday sayohatda oldingi kam sonli sayohatchilar guruhini tabiatga chiqib, tabiiy resurslarni muhofaza etish bo'yicha har turli proyektlarni amalga oshirish uchun qilgan ishlarini tushuniladi. Bu tushuncha – xalqaro ekoturizm jamiyati-ning tushunchasiga ham to'g'ri kelib unda yozilishicha, ekoturizm – "tabiat zonalariga mas'ul sayohat bo'lib, unda mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli muhofaza etiladi".

Hozirgi kunda ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi, balki fanlar tizimiga aylandi. Ekoturizm ana shu tizimda o'z o'rniga ega fan sohasi va amaliyot yo'nalishidir. Ko'pgina olimlar (Davidov, 1990; Drozdov, 1999; Xrabovchenko, 2003; Bochkareva, 2003; Yegorenko, 2003; Tuxliyev, Taksanov, 2001, Taksanov, 2005; Tuxliyev, Abdullayeva, 2006, Nigmatov, Shomuratova, 2004, 2005, 2006, 2007, 2008, 2009 va boshqalar) ekoturizmni turlicha talqin qiladilar. Avstraliyaning Milliy ekoturizm Strategiyasiga ekoturizm tabiatga yo'naltirilgan turizm bo'lib, u ekologik barqarorlik qoidalaridan kelib chiqqan tarzda o'z ichiga ta'lim va tarbiyani ham qamrab oladi. Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi ekoturizmni – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda "yumshoq" ta'sir ko'rsatish yo'li bilan madaniy va tabiiy merosni o'rganish hamda zavqlanish, nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik ma'suliyatli sayohat, deb tushuntiradi. Unga yaqin tushunchani AQSH Ekoturizm jamiyati beradi (Kosolapov, Miz, 2002). Yuqorida keltirilgan tushunchalarda, ekoturizm bilan tabiatga qilinadigan turizm turi va vazifalari aralashtirib yuborilgan;

ekosayohatchilarning asosiy maqsadlari doimo ham tabiatni muhofaza qilish bo‘lavermaydi, lekin ularning atrof muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishi va undan tushgan foydaning aksariyat qismini o‘scha ekoturistik muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirishi lozimligi aks etmaganligi kabi ekoturistik shartlar ifodalanmay yoki to‘lig‘icha ta’riflanmay qolingga.

Ekoturizm – shaxslarning dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashish, ma’rifiy-ma’naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadda hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, atrof tabiatga qiladigan sayohatlari. Bundan kelib chiqqan tarzda ekoturizmning maqsadi – turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta’minlash [32].

Davlat va jamiyatning ekoturistik ehtiyojini qondirish uchun milliy miqyosda quyidagi vazifalar bajarilishi talab etiladi: ekoturizmning yagona, umume’tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish; aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o’stirish yo‘llarini izlab topish; ekoturizm yo‘nalishidagi ta’lim va tarbiyani yo‘lga qo‘yish; ekoturizm bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash; hududning ekoturistik imkoniyatlarini baholash, ro‘yxatga olish, monitoringini olib borish va h.k.

Ekoturizm ob’ektiga M.I.Yegorenkov (2003) landshaft mintaqalari ekotizimlari va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni olsa, V.V.Xrabovchenko (2003) inson faoliyatidan saqlangan va u tomonidan o‘zgartirilgan atrof muhitni olgan. Jahon turistik tashkiloti ekoturizm ob’ekti sifatida muayyan davlatlarda insonlarni turizm nuqtai nazaridan qiziqtira oladigan tabiat ekanligini uqtiradi. Lekin unda insonlarni aniq bir bilish yoki amaliy faoliyatida qo‘llash mumkin bo‘lgan ob’ektiv reallik aniq qilib ko‘rsatilmagan. Ularda ekoturistik ob’ektga nisbatan aniq bir tushuncha yoki tasnifiy belgi ko‘rsatilmagan. Antropogen o‘zgargan yoki inqirozli holatdagi hududlar (Orol va Orolbo‘yi) ularning fikricha ekoturizm ob’ekti bo‘la olmaydi.

Umuman olganda, ekologiya ma’lum bir tizimda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtirishga qartilgan fan sohasi ekan, ekoturizm

ob'ektiga tabiiy komplekslar, tabiat yodgorliklari, muhofaza etiladigan, madaniylashtirilgan va buzilgan geotizimlarni kiritish mumkin. Ekoturistik ob'ekt bo'lishi uchun ushbu hududlar tabiiy kelib chiqqan yoki ular insonlar tomonidan o'zgartirilgan bo'lishi hamda kishilarni sayyoqlik imkoniyatlarini qondirishi kerak. Aks holda tabiat majmualari yoki ob'ektlari ekoturizm ob'ekti bo'la olmaydi.

Ekoturizm predmeti – ekologik harakterdagi sayyoqlik. Bu turizm sub'ektlarini atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni asrash, buzilgan tabiat tizimlari va komplekslarini qayta tiklash, tabiat komponentlaridan oqilona va samarali foydalanishga yo'naltirishdir.

Har bir fanda tasniflash ishlari olib borilgani kabi turizmda ham shu kabi ishlar bajarib kelinmoqda.

Turizmni uning ob'ekti, ulardan foydalanish usullari, sayyoohlarning yoshi, kasbi, qiziqishi, salomatligi, mashrutlarining uzoq yoki yaqinligi, og'irligi va moddiy qiymatiga qarab mutaxassislar turlicha tasniflaganlar. Zamonaviy turizmni tasniflashda S.R.Erdavletov (2000), bo'sh vaqtning borligi va davomiyligi sayohatchilarining yoshi, jinsi, salomatligi, ma'naviy-madaniy rivojlanganligi, shaxsiy hohish va moddiy ta'minlanganligi tabiiy sharoitning xilma-xilligi va mavsumiyligi harakat qilish vositasining borligi kabi omillarga o'z e'tiborini qaratgan va turizmning maqsadi, sharoiti, yo'nalishi hamda ko'lamiga qarab ularni shakl, sinf (klass), tur va ko'rinishlarga ajratgan.

T.V.Bochkareva (2003) ekoturizmni tasniflaganda ekoturlarni qayerdaligiga qarab uni sinflarga, ekoturlar maqsadi va sayohat olib boriladigan ob'ektiga qarab ko'rinishlarga, ekotur qatnashchilarining yoshi, salomatligi va guruhlarning soniga qarab shakllarga ajratgan. V.V.Xrabovchenko (2003) ekoturizm va ekoturlarni tasniflashda oddiygina qilib, 4 ta ko'rinishini ajratgan – ilmiy, tabiiy-tarixiy, sarguzasht, tabiiy rezervatlarga qilinadigan sayohat.

Ekologik turizmning konsepsiyasini ishlab chiqish bilan ko'plab yetakchi olimlar – geograflar, biologlar, iqtisodchilar, psixologlar shug'ullanganlar. Jumladan, Rossiyada V.V.Petrov (1997) A.V.Drozdov (1999), Ye.Yu.Ledovskix, N.V.Moraleva (2002), T.K.Sergeeva, T.V.Bochkareva (2003), V.V.Xrabovchenko

(2003) va boshqa davlatlarda J.Krippendorf, P.Hasslacher, D.Kramer (1988), E.Boo (1990), K.Lindberg, D.Havking (1993), H.Keballos-Laskurain (1996) kabi olimlar shug‘ullanganlar.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarini umumlashtirgan holda, shu kungacha bo‘lgan ekoturistik konsepsiyalarni keltiramiz.

Bular naturalistik, iste’molchilik, alarmizmchilar, harakatlar yoki harakatsizliklar strategiyasi, ekoturistik rivojlanish chegarasi, muhofaza qilish va rivojlanish, ekoturistik inqiloblar, barqaror rivojlanish uchun ekoturizm konsepsiyalaridir.

Yuqorida sanab o‘tilgan ekoturistik konsepsiyalardan tashqari dunyoning turli joylarida turlicha qarashga ega bo‘lgan partiyalar, oqimlar, harakatlar, kengashlar, jamg‘armalar mavjud.

Ekoturistik konsepsiyalaridan kelib chiqqan holda ekologik sayyohlikning maqsadi va mohiyatini belgilab beruvchi yana bir qadam – ijtimoiy ekoturistik munosabatlarda amal qilinishi kerak bo‘lgan prinsiplardir. Ular quyidagilardir: ekoturizmda tabiatni muhofaza qilish masalasining ustuvorligi, ekoturizmdan tushgan foydaning ekologik maqsadlarga yo‘naltirish, ekoturizmning tarixiy, madaniy, diniy turizm kabi boshqa turizm turlari bilan uzviy bog‘langanlik kabilardir. Muayyan ekologik me’yordagi ekoturizm prinsiplari ekologik xavfsizlikni ushlab turuvchi zaruriy hodisa va jarayonlar turkumiga kiradi. Bundan bir vaqtning o‘zida ham sayyohlik, ham tabiatni muhofaza qilish qoidalari kelib chiqadi.

Tabiatda olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, muhofaza ishlari yer sharining turli regionlarida, ayniqsa, tog‘li rayonlarda muhofaza ishlarini “er bilan emas, odamlar bilan olib borish kerak” yoki “mahalliy aholining yashash muhitini boshqarish, ularning o‘y-fikrlarini avlodlarning kelajagini muhofaza etishga yo‘llashdir. Bu omillarning bironta komponenti bo‘lmagan taqdirda, ekoturizm to‘g‘risida o‘ylashning ham keragi yo‘q” .

“Nima uchun?” degan savolga javob berib, biz qanday qilib va qaysi yo‘l bilan ekoturizmni rivojlantirish, kimga suyanish va qaysi yerda uchrashini bilib

olgan bo‘lar edik. Ekoturizm sayyoohlarning iste’mol talablari natijasida, babs xulosalar yo‘li bilan paydo bo‘ladi. Agar u bilan boshlanish vaqtida sayyohik tashkilotlar, turizm ma’muriyati sayyohik takliflar bilan vaqtida shug‘ullangan bo‘lsa, hozir ekoturizm – sayyohik guruhlar sayyohik resurslarining jamoat iste’moli vaqtida tabiatni muhofaza qilish, ma’naviy merosni o‘rganish talabi natijasida paydo bo‘ldi. Shunday qilib, ekoturizm – yangi va eng harakatchan turoperatorlarni aniq harakatga boshlovchi yo‘l.

Bu qonuniyatlarni o‘rganish asosida ekoturizm so‘zi ma’nosini bunday aniqlash mumkin: “Ekoturizm – sayyohik talablarga asoslanib, sayyohik iste’molga bog‘liq bo‘ladi, ekotartiblarni saqlashga hissasini qo‘sadi, mahalliy aholining talab va qiziqishlarini ko‘paytiradi, ko‘pincha, alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda amalga oshiriladi” [31].

Bu tushuncha bo‘yicha ekosayyohik oqimlarning geografiyasi va yo‘nalishini tushunish mumkin. U, asosan, sanoati rivojlangan (AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi) yoki rivojlanayotgan davlatlar(Nepal, Hindiston, Pokiston, Malayziya kabi)ga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda zaif rivojlangan, ekoturizmdan foydalanishning kichik tajribasi Kitob geologik qo‘riqxonasida va milliy bog‘larda bor. O‘zbekistonda shu vaqtga qadar – qo‘riqxona, milliy bog‘, tabiat yodgorliklari, qo‘riqchalar mavjud bo‘lgan.

Ekoturizm faqat rejali turizm ob’ekti hisoblanadi, chunki faqat ugina oldindan alohida tabiatga kam ta’sir etiladigan marshrut rejasini tuza oladi va bu marshrutlar alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlari(AMETH)dagi maxsus tanlangan “ekologik so‘qmoqlarda” olib borilib, unda sayyoohlarning to‘xtash joylari rejalanib, ularning tabiatga ta’siri hisoblangan bo‘ladi.

Havaskor sayyohik to‘plar va yakka sayyoohlар uchun AMETHga kirish alohida ruxsat asosida olib borilishi kerak. Chunki bunday guruhlar tabiatga ta’siri va undan foydalanishni o‘z madaniy darajasi va iste’molchilik talabi bilan olib borishi lozim va u ekoturizm qonunlariga ko‘p to‘g‘ri kelmasligi ham mumkin. Bu so‘z ma’nosini havaskor sayyoh guruhlari uchun AMETHga kirishni ta’qiqlash, deb tushunmaslik kerak. Turizmning bu ichki, faol turi bilan chet ellarda juda

ko‘pchilik shug‘ullansa ham bizda hozircha bu turni biladigan sayyoohlar soni kam. Lekin ko‘plab mahalliy sayyoohlar ichida bu tur bilan shug‘ullanishga ishtiyoqmandlar soni oshmoqda[26].

## **1.2. Ekoturistik resurslarning asosiy turlari**

Ekologik turizm Vatanimizning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida, ona Vatinimizning landshafti, hayvonot va nabotot dunyosiga boy va betakror tabiatni bilan tanishtirish, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini bog‘lash, mamlakatlar va turli xalqlarning biri-birini kengroq bilishi, balki shu bilan birga O‘zbekiston hududida qirilib ketishi arafasida turgan noyob hayvonot va nobotot dunyosini saqlash va ko‘paytirish maqsadida qo‘riqxonalar (Surxon, Nurota, Hisor, Baday-To‘qay, Zarafshon, Qizilqum, Chotqol, Zomin, Kitob) parvarishxonalar («Jayron») ekomarkazi, Sayhun xo‘jaligi) tarkibida va atrofida jahon talablariga javob beraoladigan milliy tabiiy bog‘larni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm ob’ektlarining moddiy- texnika bazasini yaratish uchun qo‘srimcha chet el investatsiyalarini keltirishdan iboratdir[30].

Ekologik turizmni rivojlantirishda «O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiysi» dasturlari bo‘yicha katta ishlar bajarilmoqda. Shu bilan birga Respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirishda yechimlari ancha og‘ir, jiddiy bo‘lgan muammolar ham to‘planib qolgan. Bu muammolarning birinchi navbatda o‘z yechimini kutib turgani, ekologik turizmni rivojlantirishdagi bosh ekoturizm resurslarining davlat muhofazasida turganligidir (1-jadval).

**1-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari  
ro‘yxati**

Nº	Tabiiy landshaft	Muhofaza maskani	Maydoni, ga	Tashkil etilgan yili
		<b>Davlat qo‘riqxonalari</b>	175536	1971
1.	Baday-to‘qay	Amudaryo pastteksliklari to‘qay ekotizimlari	6462	1983
2.	Hisor	Hisor tizmasi tog‘ ekotizimlari	80986	1959
3.	Zomin	Turkiston tizmasi tog‘ ekotizimlari	21735	1975
4.	Zarafshon	Zarafshon daryosi o‘rta oqimi to‘qay ekotizimlari	2352	1971
5.	Qizilqum	Amudaryo o‘rta oqimi va qo‘shni sahrolar to‘qay ekotizimlari	10311	1975
6.	Nurota	Nurota tizmasi tog‘ ekotizimlari	26895	1971
7.	Surxon	Qo‘hitang tog‘ tizmasi ekotizimlari va Amudaryo o‘rta oqimi to‘qay ekotizimlari	26895	1975
8.	Kitob	Noyob geologik kon	3938	1987
<b>Milliy bog‘lar</b>				
1.	Uyum-Chotqol davlat milliy bog‘i	G‘arbiy tyan’shan ekotizimlari	574590	1900
2.	Xalq bog‘i (Zomin)	Turkiston tizmasi ekotizimlari	24110	1977
<b>Davlat tabiat yodgorliklari</b>				
1.	Yozyovon sahrosi	Noyob tabiat yodgorliklari	1000	1991
2.	Mingbuloq tumani tabiat yodgorligi	O‘simgilik va hayvonot dunyosi	1000	1991
3.	Chust tumani tabiat yodgorligi	O‘simgilik va hayvonot dunyosi	96	1990

**manba: O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi ma’lumotlari**

**2-jadval**

**O‘zbekistondagi alohida tabiiy ob’ektlar va komplekslarni saqlash,  
ko‘paytirish va tiklash uchun hududlar**

No	Buyurtmaxonalar	Saqlanadigan va ko‘paytiriladigan ob’ektlar	Maydoni, ga	Tashkil etilgan yili
1.	Oqtog‘	Noyob va yo‘qolib borayotgan hayvon va o‘simliklar	15400	1997
2.	Dengizko‘l	Hayvonot va o‘simliklar olami	50000	1990
3.	Qarnobcho‘l	Hayvonot va o‘simliklar olami	40000	1992
4.	Qoraqir	Hayvonot va o‘simliklar olami	30000	1992
5.	Qo‘srbabod	Hayvonot va o‘simliklar olami	16300	1992
6.	Muborak	Noyob va yo‘qolib borayotgan hayvon va o‘simliklar	264469	1997
7.	Sarmish	Hayvonot va o‘simliklar olami	5000	1997
8.	Sayg‘ochi	Yovvoyi hayvonlar	1000000	1997
9.	Sechanko‘l	Baliqlar	7037	1998
10.	Sudoche	Yovvoyi hayvonlar	50000	1991
11.	Xubara	Tuvaloq va uning yashash joylari	25000	1998
	<b>Tabiiy parvarishxonalar</b>			
1.	“Jayron” ekemarkazi	Jayron, qulon, Prejevalsk otlari	7122	1976
2.	Baliq xo‘jaligi hududlari	Suv havzalaridagi antrapogen tizimlar		
3.	Kurort tabiatи hududlari	Antropogen ekotizimlar	338	
4.	Rekreatsiya hududlari	Antropogen va tabiiy ekotizimlar	70	
5.	Davlat biosfera rezervatorlari	Tabiat ekotizimlari	35724	
6.	Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonalari	Chotqol tog‘ tizimi ekotizimlari	35724	1947

## **manba: O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish qumitasi ma’lumotlari**

Keltirilgan jadval ma’lumotlari bilan tanishib chiqib Respublikamizda ekoturizm rivojlanishi kerak bo‘lgan birinchi navbatdagi ekoturizm resurslari davlat muhofazasida ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu holat juda to‘g‘ri qaror qilingan. Dunyoning barcha davlatlarida ham 1-jadvaldagи tabiiy hududlar o‘zining o‘simliklar olami va hayvonot dunyosi bilan qattiq qo‘riqlanadi. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, juda ko‘plab davlatlarda, ayniqsa tabiatda noyob o‘simlik yoki hayvon turlari muhofaza qilinadigan qo‘riqxonalardan ham ekologik turizm maqsadlarida samarali foydalanishadi. Bunga misol qilib Afrika, Kanada, Amerika, Avstraliyadagi qo‘riqxonalar, rezervatlar va milliy parklar haqidagi kino seriallarning tobora ommaviylashib borayotganligini keltirish mumkin.

Bu holatning eng muhim sababi, bu muhofazadagi manzillardan ekoturizmda foydalanishning huquqiy-qonuniy me’yorlari yaratilganlidir va bu qonunlarga «mehmonlar» ham «mezbonlar» ham qattiq rioya qilishadi. Respublikamizdagi tabiat qo‘riqxonalariga faqat ilmiy xodimlar kirishga ruxsat beriladi. Bu qo‘riqxonalarga hatto maxsus ilmiy ekspeditsiyalar ham O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining ruxsatnomasini olishi kerak.

Shuningdek, Respublikamizning daryo va suv havzalarida, suv omborlariga kirish O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan taqiqlangan. Tabiatimizning diltortar tog‘ va cho‘l landshaftlari haqida ham qayd qilingan cheklovlarni keltirish mumkin. Ekologik turizmni rivojlantirish uchun ekologik turizmning asosiy resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib ekoturizmdagi muammolar quyidagilar ekanligi ma’lum bo‘ldi:

1. O‘zbekistonda ekoturizmning asosiy resurslari davlat muhofazasida ekanligidan ushbu ekoresurslardan hozircha foydalanish imkoniyatlari deyarli yo‘q holatda.
2. Respublikadagi asosiy ekoturizm resurslariga turistik marshrutlar ishlab chiqish qoniqarsiz holatdaligini alohida ta’kidlash zarur.

3. Qo‘riqxonalar, zakazniklar va milliy parklarda ekoturizm so‘qmoqlari, marshrutlari va bu marshrutlarda turistlarga xizmatlar ko‘rsatish, dam olish va tunash manzillarini yaratishga haligacha kirishilgan emas.

4. Respublikamizda ekologik turizm resurslaridan foydalanishning huquqiy – qonuniy me’yorlari hozirgacha ishlab chiqilmagan.

5. Ekologik turizmni rivojlantirishda ekologik turizm maskanlaridagi tadbirkorlik, tashabbuskorlik, turizm-biznes mahalliy mehnat resurslarining ish bilan band bilishidagi ta’lim – targ‘ibot, qiziqtirish ishlari qoniqarsiz ahvolda.

6. Ekoturizmni rivojlantirishda ichki ekoturizm va xalqaro ekoturizmning milliy reklamasi ichki turizm bozorida ham tashqi turizm bozoriga ham chiqarilmagan [32].

O‘zbekistonda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ekoturizmni rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy chora va tadbirlar «Ekoturizm Konsepsiyasida» mukammal holatda berilgan. Ekoturizmning dunyoda tutgan o‘rni, mavqeい hamda O‘zbekistondagi saohiyati va uning rivojlanishiga e’tiborga olgan holda «Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi Vatanimizning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarida ekoturizmning rivojlanishini ta’minlaydigan quyidagi asosiy chora va tadbirlar ishlab chiqdi»:

1. Respublikamizda ekoturizm sohasida xizmat qiluvchi, jahon talablariga javob beraoladigan yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligini hisobga olgan holda, yosh mutaxassislarni ekoturizm rivojlangan mamlakatlarga (AQSH, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Germaniya) malakalarini oshirish uchun o‘qishga, ishga yuborish lozim.

2. Jahon andozalari va talablariga mos keladigan ilmiy va iqtisodiy asoslangan katta –kichik, qisqa va uzoq muddatga mo‘ljallangan loyihibar va biznes rejalar ishlab chiqib amalga oshirish lozim (imtiyozli kredit asosida).

3. O‘zbekistonda ekoturizmning jahon talablariga javob beraoladigan moddiy-texnik, axborot tahliliy bazasini yaratish, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish zarur.

4. Vatanimizning tarixiy yodgorliklari, go‘zal va betakror tabiat, landshafti, nobotat va hayvonot dunyosi haqida bukletlar, turistik atlas va haritalar yordamida dunyo ekoturizm bozorida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish lozim.

5. Baday-tuqay va «Jayron» ekomarkaziga qo‘shni hududlarda Markaziy Osiyoda qirilib ketishi xavfli bo‘lgan noyob hayvonlarni saqlash va ko‘paytirish uchun Milliy bog‘lar tashkil qilish lozim.

6. O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha yangi ekoturistik dasturlar, yo‘nalishlar va haritalar tuzish kerak.

7. Ekoturizm sohasi bilan bog‘liq tashkilotlarga ko‘proq huquqlar, imtiyozli kreditlar berish, tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunga ekoturistlarga nisbatan huquqiy nazorat ishlarini yengillashtirish bo‘yicha ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozim[24].

Vatanimizning ekoturizmning taraqqiyot salohiyati nihoyatta katta va unijadal sura’tlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Faqat bu salohiyat va imkoniyatlardan jahonda ekoturizmi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda oqilona foydalanish hamda ilmiy asosda xatolarsiz amalga oshirish lozim.

Tabiatdan foydalanishning to‘rt turi mavjud bo‘lib, ularga quyidagicha tavsif beriladi:

1. Qo‘riqxonadagi tabiatdan foydalanish uchun asosan, ilmiy xodimlar tajriba va izlanishlar olib boradi, talabalar amaliyat, sayyoohlar uchun qisqa vaqtga kirib tomosha qilishga ruxsat berishadi. Insonning tabiatga aralashuvi – jonivorlarni ovlash va otishga ruxsat berilmaydi qo‘riqning tabiiy holatini saqlash va tabiiy kompleksning yo‘qolgan qismini tiklash uchun ruxsat beriladi.

Qo‘riqxonadagi tabiatdan foydalanish xom-ashyo olish uchun emas, tabiiy resurslardan ma’lumot yig‘ish ma’nosida ishlatiladi. Qo‘riqxona xodimlar uylari va sayyoohlar uchun mehmonxonalar – qo‘riqxona tashqarisi boshqa zonalarda o‘rnashadi.

2. Rekreatsion tabiatdan foydalanish – shahar tashqarisida tabiiy bog‘lar qurish, undan uzoq vaqt dam olish va turizm maqsadida foydalanish, o‘rmon va ov xo‘jaliklari tuzish, tabiiy pichan yig‘ish, yaylov sifatida foydalanish, ya’ni, tabiiy kelib chiqishga ega bo‘lgan komplekslarda me’yorida foydalaniladi.

Qo‘riqxonadan foydalaniib ekskursiya olib boriladi va manzara katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ko‘m-ko‘k maysalar ustida yotishga, cho‘milish, meva va qo‘ziqorinlarni terish, baliq tutishga ruxsat berilmaydi. Bu yerda sayyohlik negizlari, dala uylar, safar so‘qmoqlari bo‘ylab marshrutlar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan.

3. Rural (qishloq xo‘jalik) Tabiatdan foydalanish qishloq xo‘jalik ishlarini o‘rtacha va yuqori darajada olib boriladi. Bog‘lar, polizlar, dalalar, firmalar bor joyda suv omborlari, o‘rmonlar va tabiiy bog‘lar shaharliklarni dam olish kunlari o‘z bag‘riga chorlaydi. Bu yerlarda ob‘ekt yoki xom ashyodan foydalanish ishlari olib boriladi.

4. Urbanizatsiyalik tabiatdan foydalanish shahar ichidagi odamning doimiy yashash manzillari, jamoaga xizmat ko‘rsatish zonasasi, sanoat korxonalari kirib, ular shahar ichidagi bog‘lar va hiyobonlar bilan almashib turadi[19].

Qismlarga bo‘lingan landshaft uch avtonom turlar: landshaft yo‘laklari, avto-ulov bosh yo‘llari va sayyohik shoh yo‘llardan tashkil topadi va ular tizimlarning ishlashiga kafolat bo‘lib xizmat qiladi, tabiat, urbanizatsiya va rekreatsiyalikni. Landshaft yo‘laklari bo‘ylab qo‘riqxonalarga o‘tayotgan yovvoyi hayvonlar so‘qmoqlari o‘tadi. Avto-ulov bosh yo‘llari bo‘ylab boshqa yerlarga junatilayotgan yuklar va odamlar, sayyohik bosh yo‘llari bo‘yicha – sayyohlar va ekskursantlar hisoblanishadi. Bu xil tabiatdan foydalanish, alohida muhofaza qilinayotgan tabiiy hududlarga ishlataladi.

BMT ning atrof-muhitga bag‘ishlangan (1992 yil Rio-de-Jeneyro) xalqaro konferensiyasida biologik ko‘p turlilik to‘g‘risida Konvensiya qabul qilinib, uni yer yuzidagi ko‘plab davlat vakillarining shartnomasi oliv hokimiyat organlari tomoni-dan tasdiqlanadi. Buning asl sababi shuki, atrof muhitga antropogen ta’siri Yer kurrasidagi tirik mavjudotlar (genofondining) qisqa-rishiga sabab bo‘ldi. Yer

yuzining ko‘p regionlarida yo‘qolgan va yo‘qolish oldida turgan o‘simlik va hayvonlar soni oshdi (Yevropada, Shimoliy Amerika va dunyo okeni orollarida ular soni 8% dan 21% gacha yetdi va ular alohida muhofazani talab etayapti).

Yer yuzidagi tirik mavjudotlar genofondini saqlashning eng samarali usuli muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishdir, bunday hududlar soni yer kurasida 3500 va egallangan maydoni 4 mln.kv.km. Bu hududlar vazifasi: landshaftlarni saqlash, nodir va yo‘qolayotgan hayvonot va o‘simlik turlarini saqlab qolish, ularning ko‘payishiga sharoit yaratishni talab etmoqda. So‘nggi yillarda muhofaza etilayotgan maydonlar turlari ko‘paymoqda. Yangi Zellandiyada u 19 % maydonni, Norvegiyada 9%, Yaponiyada 3%, Buyuk Britaniyada 4%, Chexiya va Slovakiyada 3,5%, AQSH da 2,5%, Shvesiyada 1,3%, qadimgi SSSR da 1,3%.

Odatda, davlat qo‘riqxonalari deganda tabiatni qo‘riqlanishi shart bo‘lgan ilmiy, ekologik-ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan, tabiiy muhit nishonalarini, tipik yoki nodir landshaftlar, o‘simlik va jonivorlar genetik fondi saqlanadigan va xo‘jalikda foydalanishdan to‘liq chiqarilgan tabiiy qo‘riqxonalari tushuniladi.

Hozirgi vaqtida dunyoning 82 davlatida 320 dan oshiq biosferali qo‘riqxonalari mavjud bo‘lib, shundan AQSH da 47 ta, Bolgariyada 17 ta, Buyuk Britaniya va Ispaniyada 13 tadan, Germaniyada 12 tasi joylashgan. Eng ulkan biosferali qo‘riqsona Daniyada, Grelandiya shimoli-sharqida (maydoni 70 mln.ga), “Atlantik o‘rmon qo‘riqxonasi (29.5 mln. ga)” va “”Braziliya sharqiy qirg‘og‘ida o‘lkalashgan.

Ekoturizm ma’nosini anglashda “ekoturizm – turizm turi, sayyohik iste’molga, tabiatni o‘rganishga va ekotizimni saqlashda o‘z hissasini qo‘shishga, mahalliy aholi ehtiyojini qondirishga qiziqishini ko‘paytirishga bog‘liq bo‘ladi va alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda bo‘ladi”[21].

“Tabiiy alohida muhofaza etiladigan hududlar biosferani quruqlikdagi yoki akvatoriyarning yuzasi yoki butun qalinligi bo‘yicha hajmiy maydonlar bo‘lib, ular butunlay yoki qisman, doimiy yoki vaqtincha an’anaviy intensiv aylanishdan olingan va insonni o‘rab turgan tabiiy muhitni saqlash va yaxshilashga qaratilgan,

tabiiy resurslarni muhofaza etish va ko‘payishini ta’minlash, tabiiy va sun’iy tabiiy ob’ektlarni muhim ahamiyatga ega bo‘lgan taqdirda muhofaza etishga qaratilgan. Bunday hududlar eng avval o‘ziga xos ekologik (tabiiy) bir butun biosferaning yoki qismlarining mo‘tadilligini va odamlar hayoti va sog‘lig‘i saqlab qolishga xizmat etadigan muhitdir”.

Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (AMETH)ga shu kunlarda qo‘riqxonalar, milliy va yodgorlik bog‘lari, “tabiatdagi muzeylar”, zakazniklar (yakka qo‘riqchalar), tabiatning nodir yodgorliklari kiradi. Hozirgi kunlarda O‘zbekiston hududida – qo‘riqxona, milliy bog‘lar, tabiatning nodir yodgorliklari bor.

Qo‘riqxona bilan milliy bog‘, qo‘riqchalar va tabiatning nodir yodgorliklari o‘rtasidagi farq nima va ularda ekoturizmni qanday rivojlantirish mumkin, degan savol kelib chiqishi tabiiy.

Tabiiy turistlik resurslarni asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatlarini tiklashda foydalanish vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Turistlar asosiy ehtiyojlarini tabiatdan qondiradilar. Turistlik faoliyatni tashkillashtirishda landshaftlar, iqlim, suv ob’ektlari, dengizlar, mineral suv va davolovchi botqoqlar asosiy resurs vazifasini bajaradi. Bu resurslar o‘zi yoki inson tomonidan qayta tiklanishi mumkin. Bu resurslarni geografik, biologik, geologik va boshqa jihatlarga ko‘ra baholash mumkin. Dam olishni tashkil etish uchun tabiiy turistlik resurslarni tahlil etishni talab qiladi. Tabiiy resurslar sifatida alovida tabiat komponentlari yoki bir butun tabiat kompelkslarini olish mumkin. Barcha tabiiy resurslarni rekreatsiya yoki turistlik potensial nuqtai nazardan qarash lozim. Ammo tabiiy resurslardan foydalanish darajasi mintaqaga ixtisoslashuviga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin.

**Tabiiy turistlik resurslarning tasnifi mavjud bo‘lib, u ikki yoqlama xususiyatga ega, bir tomondan tabiiy kelib chiqishi bilan bog‘liq, ikkinchi tomondan turizm uchun iqtisodiy ahamiyati tomonidan aks etishidir.** Tabiiy resurslar qo‘yidagicha guruhlanadi:

### 3-jadval

#### Tabbiy resurslarning asosiy tasniflari

Nº	Asosiy tasnif mezonlari	turlari
1.	Kelib chiqishiga ko‘ra	-tabiiy (geologik, iqlimiyl, hidrologik, termal suvlar); - biologik – tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna); - energoinformatsion; -tabiatning‘ziga xos maydon va landshaftlari
2.	Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko‘ra	- mineral suvlar; - botqoqlar; - tuzlar; - o‘rmonlar
3.	Resurslarning davomiylik darajasiga ko‘ra	-Tugaydigan tabiiy resurslar -Tugamaydigan tabiiy resurslar
4.	O‘zi qayta tiklanishi va o‘sishi imkoniyatiga ko‘ra	-Qayta tiklanadigan resurslar -Qayta tiklanmaydigan resurslar,

Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy o‘rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Undan tashqari tabiiy resurslardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish natijasida bir qancha muammolar ham kelib chiqmoqda. Bunda tabiatdan noto‘g‘ri foydalanish, ko‘plab qurilishlarni amalga oshirish tufayli bo‘lmoqda. Natijada ekosistemalar muvozanati buzilib, ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi vaqtida ekoturizmning quyidagi turlari alohida ajratib ko‘rsatiladi (4-jadval).

## Ekoturizmning asosiy turlari

Nº	Asosiy tasnif mezonlari	turlari
1.	<b>Ilmiy turizm</b>	sayyoohlarning dala sharoitida kuzatish, ilmiytadqiqot ishlari olib borishi, tabiat izlanishlarida ishtiroki ko‘zda tutiladi. Masalan, “Kolumbiya qushlari” ekoturi
2.	<b>Tabiat tarixini o‘rganish turlari</b>	atrof-muhitni va mahalliy madaniyatni o‘rganish uchun qilingan sayohatlar
3.	<b>Sarguzasht turizmi</b>	barcha faol harakat turlarini o‘zida jamlagan sayohatlarni o‘z ichiga oladi hamda unga tabiatda dam olish turlari ham kiradi. Ulardan maqsad yangi hissiyotlarni sezish, taassurotlarni boshdan kechirish, sayyoohlarning fizik shakllarini yaxshilash va yangi sport yutuqlariga erishishdir
4.	<b>Alohiba muhofaza etiladigan turizm</b>	Tabiat hududlariga alohida (AMETHga) sayohat etish bo‘lib, mahalliy aholi o‘z hududlarining sotsial-iqtisodiy rivojida ishtirok etish, mustaqil tabiatdan foydalanish sayyoohlarning ekologiya sohasida bilimli bo‘lishi ko‘zda tutiladi

1997 yil Braziliyada bo‘lib o‘tgan Butunjahon Kongressida e’tirof etilgan ma’lumotga ko‘ra, dunyo bo‘yicha jami sayohatga chiqqanlarning 12%i ekoturizmga, ya’ni “yashil” sayohatga chiqishgan. Chet ellik olimlar baholashicha, 1993-yil ekoturizmdan tushgan daromad 30 mld. AQSH dollarini tashkil etgan, ya’ni xalqaro turizmdagi jami daromadning 10% ini tashkil etgan. Sayohatning bu turi, asosan, AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Filippin, Keniya, JAR davlatlarida tez rivojlanmoqda.

Sayyohek sayohatlarga chiqishdan maqsad – sayohat vaqtida yangi joylarni ko‘rish, tabiat go‘zalligidan, toza tog‘ yoki o‘rmon havosidan bahra olish, “yovvoyi” tabiat bag‘rida dam olish, shuningdek, o‘zga xalq urf-odati, madaniyati, san’ati, tarixiy obidalarini ko‘rishdan iboratdir.

Ekoturistik resurslar tarkibiga quyidagilar kiradi: rekreatsion resurslar, tabiat, tog‘ va tekisliklar, daryolar, cho‘l va vohalar, ko‘l va turli landshaft zonalari va boshqalar. Shular asosida ekoturistik resurslar quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi:

- dengiz va okean resurslari;
- o‘rmon va sun’iy bog‘ resurslari;
- daryo va ko‘llar resurslari;
- tog‘ ekoresurslari;
- tarixiy obidalar ekoresurslari;
- arxitektura yodgorliklari;
- ekologik tang zonalar;
- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoresurslari.

Yuqorida ta’riflangan ekoturistik resurslarning tarkibiy qismlari ichida oxirgisi alohida salmoqli o‘rin tutadi va ko‘pchilik olimlar ekoturistik resurslar tushunchasiga nisbatan faqat alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturistik resurslarini qo‘llashadi.

### **1.3. O‘zbekistonning ekoturistik salohiyati**

O‘zbekiston betakror tabiatga, boy tarixiy-madaniy merosga, katta sayyoohlik salohiyatiga ega mamlakat. Samarqand, Xiva, Buxoro, Shahrisabz singari qadimiy obidalar olamga mashhur. Buyuk Ipak Yo‘li bo‘ylab joylashgan to‘rt mingdan ziyod madaniy-me’moriy yodgorliklarga ega bo‘lgan mamlakat.

Istiqlol yillarida yurtimizda barcha sohalar singari turizmni rivojlantirish, yangi turistik yo‘nalishlarni tashkil etish va sayyoohlarga jahon andozalari darajasidagi servis xizmatlari ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ana shu e’tibor tufayli hozirgi vaqtda respublikamizning barcha hududlari bo‘ylab yuzdan ortiq sayyoohlik yo‘nalishlari faoliyat ko‘rsatyapti. Joylardagi tarixiy-madaniy ob’ektlarning 140 tasi YUNESKO tomonidan muhofazaga olingan.

Keyingi yillarda dunyo sayyoohlarining qiziqish doirasi muntazam ravishda o‘zgarib, turizmning noan’anaviy — ekoturizm, agroturizm, arxeologik turizm kabi turlariga qiziqishi ortmoqda. Bizning fikrimizcha, ular orasida ekoturizm eng istiqbolli va tez taraqqiy etmoqda.

Mamalakatimiz hududidagi tog‘li manzara ekotizimi, o‘ndan ziyod arxeologik yodgorliklar bu yerda ekologik, spesiologik, tarixiy, qishloq va sport turizmlarini rivojlantirish istiqbollarini ochib bermoqda. Hozirda tumandagi tabiiy hududlarda ekoturizm xizmati ko‘rsatish infratuzilmalari yaratilyapti. Barcha arxeologik yodgorliklarga olib boruvchi avtomobil yo‘llari ta’mirlangan, yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatilgan, servis shoxobchalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Mahalliy hokimiyat tashabbusi bilan 8 ta uy mehmonxonasi sayyoohlarga xizmat ko‘rsatyapti. Ular sayyoohlar e’tiborini tortadigan hududlar — Duoba, Beshkubi, O‘riklisoy qishloqlaridagi aholi xonodonlarida joylashgan. Joriy yilda bunday mehmonxonalar sonini 15 taga yetkazish mo‘ljallanmoqda[39].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, birgina o‘tgan yilning o‘zida tumanda ekoturizm bo‘yicha 6 ta yangi yo‘nalish ochildi va ularning soni 12 taga yetdi.

Natijada birgina Samarqand viloyati bo‘yicha sayyoohlар oqimi 2012 yilga nisbatan 2014 yilda 142 ming nafardan 161,3 ming nafarga yetdi.

Ayni paytda viloyat bo‘yicha 372 ta madaniy meros ob’ekti ro‘yxatga olingan. Ularning 42 tasi tarixiy obida, ziyoratgoh, 267 tasi ekologik manzil, 63 tasi monumental yodgorliklardir. Bularidan tashqari, “Zomin” davlat qo‘riqxonasi, “Nurota” qo‘riqxonasi, “Zomin” milliy tabiat bog‘i singari 3 ta alohida qo‘riqlanadigan hudud ham mavjud. Ularda noyob o‘simliklar, kamyob hayvonlar muhofazaga olingan.

Yoki Amir Temur g‘ori, Said ibn Vaqqos, Novqa ota qadamjolarini olaylik. Bu maskanlarning har qaysisi alohida ta’rifu tavsifga ega. Baxmal va Forish tog‘larida, Arnasoy ko‘li va o‘allaorol tog‘oldi zonalarida ham turistlar diqqatini tortadigan, ularda qiziqish va havas uyg‘otadigan joylar ko‘p. Ularda ham sayyoohlarga shart-sharoit yaratishga, yo‘nalishlar belgilash, infratuzilma barpo etishga kirishilgan.

Ko‘rinib turibdiki, ekoturizm sayyoohlар uchun ham, ularga xizmat qilayotganlar uchun ham foydali soha. Shunday ekan, bu yo‘nalishda targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirishimiz, yoshlarning ekoturizmga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishimiz va ayni paytda ona tabiatimizni, osoru atiqalarimizni kelgusi avlodga bus-butun holda yetkazishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim bo‘ladi.

Viloyatning o‘ziga xos tabiatini inobatga olgan holda mazkur hududlarda ekoturizmni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Kishilarining muayyan muddatga dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lig‘ini tiklash, ma’rifiy-ma’naviy tadbirlarni olib borish maqsadida tabiat qo‘yniga qiladigan sayohatlari ekoturizm sifatida baholanadi. Lekin ekoturizm aynan ekologik maqsadlarni ko‘zlagan tarzdagi maqsadli sayohat ekanligini ham hisobga olishimiz zarur. Shuning uchun, turli ekoturistik kompaniyalar tashkil etishda, turistik marshrutlarda ekoturlarni aniqlashda yoki belgilashda, reja va dasturlarni ishlab chiqishda ekoturizmning ob’ekti, maqsadi va vazifalarini aniq ajrata olish zarur.

Ekoturizm ob'ektiga tabiiy komplekslar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, madaniylashtirilgan va buzilgan geokomplekslarni kiritish mumkin. Ta'kidlash kerakki, ekoturizmning maqsadi - hozirgi va kelajak avlodlar uchun tabiatdan turistik yo'nalishda foydalanish orqali ekologik xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlash, muayyan hududlardagi landshaftlarni saqlab qolish hamda ularni qayta tiklash yo'llarini o'rganishdan iborat.

Chunki muhofazaga olingan hududlar nafaqat o'zлari joylashgan landshaftlarning noyob xususiyatlarini saqlab qolish va tiklash, balki o'zga hududlarning ekologik barqarorligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Demak, ekoturizm shunday tashkil etilishi kerakki, tabiat va jamiyat munosabatlarida ekologik muvozanatini saqlab turish asosiy vosita ekanligini tushuntira olishi, kishilarning ekologiya sohasidagi bilimlarini kengaytirishi hamda ekologik ta'lim-tarbiya berishga qodir bo'lsin. Buning uchun ekoturizmni tashkil etishda bir qator jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, tabiat rang-barangligini, ayniqsa noyob va qimmatli ob'ektlar hamda ularning birikmalari mavjud hududlarni o'rganish orqali ekologik bilimlarni oshirish hamda ekologik ta'lim-tarbiya berish, yo'qolishga, buzilishga, o'zgarishga uchrayotgan tabiat uchun tipik bo'lgan tabiiy hududlarni saqlab qolish muammolarini o'rganish lozim. Shuningdek, tabiatni muhofaza qilish yoki undan foydalanishda mahalliy aholi ehtiyojlarini hisobga olish, tabiiy resurslarni tiklash, muhofaza qilish va boyitish jarayonlari bilan tanishish hamda inson hayoti uchun muhim bo'lgan sog'lom tabiiy muhitni saqlash yo'llarini tushuntirish kerak.

Ekoturistik marshrutlar ishlab chiqishdagi asosiy talab yo'nalishdagi jozibador, turistlar diqqatini tortadigan va qiziqtiradigan ob'ektlar va hududlarni belgilab olish hisoblanadi. Marshrut ishlab chiqilgandan keyin ham ushbu tur haqida imkon darajasida rangli bukletlar chop etishga e'tibor beriladi. Zero, bu bukletlar dastlabki turizm bozoriga chiqariladigan reklama mahsuloti ham hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi 865 ta tashkilot mavjud bo'lib, bu tashkilotlarning olib borayotgan

faoliyati nafaqat mahalliy, balki xalqaro turistlarni ham jalg qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turistlarni joylashtirish shaharlarda mushkul emas. Lekin viloyat markazidan uzoq masofada joylashgan ekoturistik ob'ektlarga uyushtiriladigan sayohatlar davomida muammo yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli ham ekoturistik marshrutlarni rejalashtirar ekanmiz, birinchi navbatda sayyoohlarni joylashtirish sharoitlarini aniqlab olishimiz lozim. Joylarda turistik baza yoki lagerlar tashkil qilish orqali sayyoohlarning ham tunash, ham ovqatlanish muammolarini hal qilish mumkin. Shu bilan bir qatorda, ekoturistik marshrutlarda sayyoohlarning qiziqishini yanada orttirish maqsadida milliy ko'chma qozon-tovoq usulida tabiat qo'ynida tashkil qilish, ekoturistik marshrut ishlab chiqilganda ekoturistik ob'ektda turistik lager (mavsumiy-palatka usulida) yaratish yaxshi samara beradi [29].

Viloyat hududida ekoturistik marshrutlarni yanada mazmunli tashkil qilish uchun ularni majmuali usulda tashkil etish maqsadga muvofiqidir. Chunki, viloyat markazidan ancha olisda bo'lgan ekoturistik ob'ektlarga birdaniga yetib borish sayyoohlarni charchatishi yoki zeriktirishi mumkin. Shuning uchun ham majmuali marshrutlar ishlab chiqilganda sayyoohlarni qiziqtirgan ekoturistik resursga borishda yo'l-yo'lakay ekskursiyalar uyushtirish, so'lim joylarda dam olish, atrofdagi diqqatga sazovor joylar, qadimiy maskanlar, tarixiy-madaniy obidalarni ham yo'nalishga kiritish lozim. Sayohatingizni zamonaviy, har tomonlama qulay, barcha sharoitlar muhayyo bo'lgan shaharlarda o'tkazishingiz yaxshi, ammo tabiat yaratgan mo'jizalardan olgan hayratingiz oldida bu hech narsa emas. Negaki, inson doimo asliyatga intilib yashaydi. Biz ko'hna maqbara va zamonaviy shaharlar bag'rida emas, tabiat bunyod etgan qadamjolar, ya'ni turizm sohasining so'ngi paytlarda keng urg'u berilayotgan ekoturizm haqida so'zlamoqchimiz.

Ekologik turizm o'tgan asrning oxirlaridan jahon sayyoohlilik industriyasiga asta-sekin kira boshladи va bugungi kunga kelib jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiy sohalardan biriga aylandi.

Ekspertlarning fikricha hozirda ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon sayyoqlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ziyod ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 770 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Ayni paytda turizm rivojlanayotgan mamlakatlarda ham taraqqiy etmoqda. Bu o'rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O'rta Sharq hamda Yevropa mintaqalaridagi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Ekspertlarning ta'kidlashicha, turizm industriyasida ekoturizm tarmog'iga kiruvchi tabiiy va sarguzasht turizm tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Birgina Kanada davlatida yovvoyi tabiatga sayohat turizmining umumiyligi hajmi ichki turizmdan tushgan daromadning 25 foizini tashkil etadi. Kanada hukumati, faqatgina ekoturizmdan tushgan soliq hisobidan har yili 1,7 milliard AQSH dollari miqdorida foyda oladi. Bu esa, hukumat tomonidan yovvoyi tabiatni muhofaza qilish dasturiga ajratilgan mablag'dan 5 barobar ko'pdir.

Shuni aytish joizki, ekoturizm tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalgalashirishga katta hissa qo'shadi hamda ularni to'la-to'kis o'tkazishga sezilarli moliyaviy ko'mak beradi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, har yili ekoturizmdan nisbatan kichik davlatlar ham Keniya-1,4, Ekvador-1,18, Kosta-Rika-1,14, Nepal-1,55 million AQSH dollari miqdorida daromad oladi. Ushbu mamlakatlarning ekoturizmdan olgan daromadi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 70-80 foizini tashkil etadi. Ayni paytda jahon turizmi sanoatida xalqaro turizmdan tushgan daromad avtomobil, neft, gaz ishlab chiqarish sanoatidan keyin uchinchi o'rinni egallaydi[41].

Mamlakatimizda ekoturizm barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlar jarayonida tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, atrof-muhitga inson omilining salbiy ta'sirini kamaytirish, chiqindilarni zararsizlantirish, ishlab chiqarishga sof texnologiyalarni joriy etishga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida «yashil iqtisodiyot»ni joriy etish, innovatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar ko'lami kengaymoqda.

Xo'sh, soha bizda qanday rivojlanmoqda degan o'rinli savol tug'iladi. Hozirda yurtimizning ko'plab hududlarida bunday ishlar keng miqyosda yo'lga qo'yilgan desak aslo yanglishmaymiz. Buxoro viloyatidagi «Jayron» ekomarkazida, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi tabiiy hududlarda ekoturizm xizmati ko'rsatish infratuzilmalari yaratilgan.

Mamlakatimizda nafaqat dunyoga mashhur, xorijiy sayyohlarni jalb qiluvchi Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlar, tarixiy yodgorliklar, shu bilan birga, ekoturizm bilan bog'liq betakror go'zal tabiat, landshaftlar (sahro, cho'l-adirlar, tog'lar, pasttekisliklar), xilma-xil noyob o'simlik va hayvonot olami, nodir, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan arxeologik topilmalar, dunyoda kam uchraydigan geologik kesimlar va shunga o'xshash tabiiy yodgorliklarning 8000 dan ortig'i mavjud. Bu biz yashab turgan o'lka tabiatni ajoyibotlarga boy ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston 38 million gektardan ortiq bo'lgan ovchilik-baliqchilik yer maydonlariga ega. Ulardan bir million gektarini suv fondi, ko'llar, daryolar, suv omborlari tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rtaida ekoturizm uchun qulay transport-geografik hududda joylashgan, rivojlangan turli xildagi kommunikatsiya aloqa yo'llari bilan bog'langan bo'lib, o'zining xalqaro turizm salohiyati bo'yicha jahonda oldingi o'rinnarni egallaydi. Biroq, amalda O'zbekistonda bu salohiyat va imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanilmayotgani natijasida mamlakatimizda turistlarni qabul qilish amaliyoti salohiyatga nisbatan ancha kam. Shu o'rinda Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'z tashlasak. O'zbekistonga yiliga o'rtacha 470 ming nafar atrofida sayyoh kelib ketmoqda, vaholanki, O'zbekiston turistik resurslari har yili 1 milliondan ortiq sayyohlarni qabul qilish imkoniyatini beradi[42].

O‘zbekistonda ekologik turizmning rivojlanishiga to‘sinqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri - bu tabiiy hududlarda ekoturistlar uchun eng muhim bo‘lgan, yovvoyi tabiat qo‘ynida Markaziy Osiyoda kamyob hayvonlarning erkinlikda yashashi uchun infratuzilmaning yetarli darajada emasligi sabab bo‘lmoqda desak yanglishmaymiz.

Ekoturizmni rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar yurtimizning tabiiy resurslaridan oqilonqa foydalanish sohasida, nafaqat xorijiy sayyoohlarni ona Vatanimizning landshafti, hayvonot va nabotot dunyosi, boy va betakror tabiatini bilan tanishtirish, balki xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini bog‘lashdan iborat. Shu bilan birga, O‘zbekiston hududida yo‘qolib borayotgan noyob hayvonot va nabotot olamini saqlash va ko‘paytirish maqsadida qo‘riqxonalar (Surxon, Nurota, Hisor, Baday-To‘qay, Zarafshon, Qizilqum, Chotqol, Zomin, Kitob), parvarishxonalar («Jayron» Ekomarkazi, Sayxun xo‘jaligi) tarkibida va atrofida jahon talablariga javob bera oladigan milliy tabiiy bog‘larni yaratish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston aholisining dam olish, davolanish, turizm maskanlarining xizmatiga bo‘lgan talabini qondirishda Toshkent viloyatining rekreatsion imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi. Viloyat hududining xo‘jalik nuqtai-nazaridan yuqori darajada rivojlanganligi va bu yerda injener-qurilish sharoitining har xilligiga qaramasdan uning noyob tabiiy-rekreatsion resurslari na faqat viloyat, balki qo‘shni xududlar aholisini unga bo‘lgan talabini ham qondirishi mumkin. Maydoni 15,6 ming km<sup>2</sup>, aholisi 4,5 milliondan biroz ortiq bo‘lgan Toshkent viloyati geografik o‘rmini qo‘layligi, uning boshqa viloyatlarga nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy tomonidan tez rivojlanishi, uning viloyatlar orasida alohida mavqega ega bo‘lib qolishida muhim omildir. Viloyatdagi daryolarning keng qayirlari o‘ziga xos madaniy landshaftlari va to‘qaylari bilan, mevazor va yong‘oqzor-archazorlardan iborat o‘rtacha balandlikdagi tog‘lari va yaylovlar bilan band baland tog‘lari birgalikda o‘ziga xos rekreatsiya zonalarini tashkil etadi. Bunda tog‘lar orasida Chirchiq vodiysida qurilgan Chorvoq va Xodjikent suv omborlari, Ohangaron vodiysida bunyod etilgan Angren va Toshkent suv omborlarining, kanallarning va

viloyatda juda ham ko‘plab topilgan yer osti mineral suvlarining mavqeい alohidadir. Iqlimiyl jihatdan rekreatsiya uchun eng qulay sharoit viloyatda o‘rtacha balandlikdagi tog‘larining o‘rmon-o‘tloq-dasht mintaqasiga (800-900 metrdan 2500-3000 metr absolyut balandlikdagi hududlarga) to‘g‘ri kelsa, gidrogeologik jihatdan esa cho‘l (0-300 m) va tog‘ oldi cho‘l-dasht va quruq dasht (300-1200 m) mintaqalariga to‘g‘ri keladi. Viloyat tabiiy-rekreatsion resurslaridan rekreatsiya nuqtai-nazaridan quyidagi 4 ta yo‘nalishda foydalanish mumkin. Bular aholini sog‘lomlashtirishda, sportda, tabiatni o‘rganishda va aholini davolashda. Toshkent viloyati tabiiy-rekreatsiya resurslarini tahlili asosida uning Chirchiq xavzasi qismida Chirchiq-Pargos, Xumson-Oqtosh, Chimyon-Beldersoy, Burchmulla-Nanay, Oqsoqota-Parkent kabi rekreatsiya zonalarini ajratish mumkin. Ular ichida rekreatsiya nuqtai-nazaridan eng qulayi Chirchiq vodiysining o‘rta va yuqori qismida ajratilgan Xumson-Oqtosh, Chimyon-Beldirsoy va Burchmulla-Nanay zonalaridir. Quyida ular haqida qisqacha ma’lumot berishga harakat qilib ko‘ramiz. Xumson-Oqtosh zonasasi. Bunda rekreatsiya uchun eng ahamiyatlisi Xumson qishlog‘idir. U Ugom tizmasi g‘arbiy chekkasining janubiy-sharqiy yonbag‘rilarida, Korjontog‘ning janubiy yonbag‘rida, Ugom daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, maydoni 15 ming hektar, aholisi 3,3 ming kishini tashkil etadi. Aholisi asosan o‘zbeklardan tashkil tpgan bu qishloq 800-1000 m absolyut balandliklarda joylashgan. Xumson-Oqtosh zonasining o‘ziga xos takrorlanmas landshaftlari, iqlimi, etnik xususiyatlari, zonada atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining yo‘qligi va respublikamiz poytaxti Toshkent shahriga yaqin joylashganligi (60-90 km) uning hududini rekreatsion zona deb tan olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xumson-Oqtosh zonasida may-sentyabr oylari oralig‘i turistik mavsum hisoblanadi. Bu davrda Xumsonda 10 000, butun zona xududida esa 120 000 gacha aholi dam olishi, sayr-sayyohat, qilishi davolanishi mumkin va bu davrda ular alpinizm, trekking (ko‘p kunlik sayr-sayyohat), rafting (Ugam daryosida oqim bo‘ylab suzish), otta sayr qilish, baliq ovlash bilan shug‘ullanishlari, undan tashqari yil davomida faoliyat ko‘rsatadigan «Xumson», «Oqtosh» sanatoriylarida, «Xumson-buloq» dam olish uyida va

shularga o‘xhash ko‘plab davlat va shaxsiy dam olish maskanlarida xordiq chiqarib, davolanishlari mumkin. Burchmulla-Nanay zonasasi. Bu zona o‘z ichiga Chorvoq suv omborining janubi-sharqida, Piskom va Ko‘ksu tizmalarining eng chekka g‘arbiy tarmoqlari etaklarida joylashgan, absolyut balandligi 900-1000 m atrofida bo‘lgan Burchmulla, Yakkatut, Yangiqo‘rg‘on, Yusupxona, Bog‘iston, Nanay kabi qishloqlarni va ular orasidagi hududlarni o‘z ichiga oladi. Bu zonada rekreatsiya nuqtai-nazaridan eng ahamiyatlisi Burchmulla qishlog‘i bo‘lib, uning maydoni 15000 hektar, aholisi 4,1 ming kishi bo‘lib, asosan etnik tojiklardan tashkil topgan. Burchmulla va uning atrofida dam oluvchilarni jalb qiladigan ob’ektlarga (maskanlarga) Ko‘lsoy darasini, Ohotnichiy cho‘qqisini, Ko‘ksuv vodiysini, Chorvoq suv omborini kiritish mumkin. Bu maskanlarda dam oluvchilar hozirgi kunda Chorvoq suv omborida cho‘milishlari, ko‘p kunlik va bir kunlik sayr-sayyohat uyushtirishlari, qadamjoylarni ziyyarat qilishlari, otta sayr uyushtirishlari, alpinizm, baliq ovlash bilan shug‘ullanishlari, shaxsiy sektorga qarashli oromgohlarda va «Oltin yombi» dam olish uyida xordiq chiqarishlari mumkin. Burchmulla-Nanay zonasiga kelayotgan turistlarning 80% uyushmagan poytaxt aholisidir. Chegara rejimi, xizmat ko‘rsatishning talab darajasida emasligi ko‘plab chet elliklarni bu zonaga dam olishga jalb qilish imkonini bermaydi. Hozirgi kunda Burchmulla-Nanay zonasida mavsumda 100-150 ming atrofida aholi dam olmoqda. Kelajakda ularning sonini, yuqorida keltirilgan muammolar ijobjiy hal qilinsa, 350 ming kishiga yetkazish mumkin. Bu yana toza havo, Quyosh nuri, suv va dorivor o‘simliklardan foydalanib davolash punktlarini tashkil qilishni, Chorvoq suv ombori bo‘yida plyajlarni, tibbiy va qutqaruv xizmatini talab darajasiga keltirishni taqazo qiladi. Chimyon-Beldirsoy rekreatsiya zonasasi. Ugom-Chotqol milliy parki tarkibida bo‘lib, uning ichida rekreatsiya uchun eng ahamiyatlisi Chimyon qishlog‘i bo‘lib, u poytaxt Toshkent shahridan 80 km shimoliy sharqda, Chorvoq suv omboridan 12 km janubda, Chotqol tog‘ tizmasining dengiz sathidan 1600 metr baland qismida joylashgan. Aholisi 2250 kishi (2005 y) atrofida bo‘lib, 90% ga yaqini qozoq va qirg‘iz millatlariga mansubdir. Chimyon qishlog‘i uni o‘rab turgan tog‘lari bilan sarguzashtli turizm

ishqibozlarini o‘ziga jalb qiladi. Zonaning Toshkent shahriga yaqinligi, unda atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat korxonalarining yo‘qligi, iqlimining yilning hamma fasllarida ham qulayligi (yumshoqligi), umuman tabiatining mavtunkorligi, xilmalilligi, tabiiy resurslarga boyligi, aholisini, madaniyati va urf odatlari bu zonada nafaqat turizimni balki, ekoturizmni ham rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Chimyon-Beldirsoy biz yuqorida taxlil qilgan zonalardan sport-turistik infrastrukturani yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun unda dam oluvchilar soni yoz mavsumida haftaning ish kunlarida har kuni 3000 taga, yakshanbada esa 10 000 tagacha, qishda esa dam olish kunlari 5000 tagacha yetadi. Agar zonada dam oluvchilar, davolanuvchilar uchun hamma imkoniyatlar yaratilsa, unga tashrif buyuruvchilar soni yil davomida 350 mingtagacha yetishi mumkin. Hozir Chimyonda mehmonxona, restoran, 2 ta osma yo‘l, chang‘i uchish trassalari ishlab turibdi, Chimyon yaqinidagi Beldersoyda esa jaxon standartlariga javob beradgan chang‘i uchish trassasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Toshkent viloyatining tog‘ oldi va tog‘lik qismida tabiiy sharoit iqtisodiy-ijtimoiy omillar qulay bo‘lgan joylarda tabiiy jarayonlarni kechishini va seysmik xavfni inobatga olgan holda rekreatsion muassasalarini kengaytirish, yangilarini tashkil etish imkonini beradi va mahalliy aholini hamda xorijiyliklarning dam olib davolanishlari, sayr-sayohatda bo‘lib, kayfiyatlarini yaxshilashlari uchun qulay imkoniyat yaratadi.

### **1-bob bo‘yicha xulosa**

Ekoturizm – shaxslarning dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashish, ma’rifiy-ma’naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadda hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, atrof tabiatga qiladigan sayohatlari. Bundan kelib chiqqan

tarzda ekoturizmning maqsadi – turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta'minlashdir.

Yurtimizning barcha viloyatlarida ekoturizm markazlarini tashkil etish imkoniyati mavjud. O'zbekistonda ekoturizmning imtiyozli tomoni shundaki, sayohatlarni deyarli butun yil davomida tashkil etish mumkin. Bahorda sahrolar va cho'llar o'ta chiroyli manzara kasb etadi, yoz faslining boshida esa o'simliklar quriy boshlaydi va bu vaqtdagi tabiat manzarasi o'zining jozibadorligini yo'qotadi. Biroq aynan shu vaqtning o'zida mamlakatimizning tog'li hududlarida dam olish sayyohlar uchun qiziqarlidir. Sayyohlarni jalb qilish uchun birinchi navbatda qulay xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaratish, ularni qulay transport vositalari bilan ta'minlash va albatta, O'zbekistonning ekoturistik salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilish zarur. Afsuski, mamlakatimizda ekologik turizmning hozircha ko'proq tabiat ne'matlarini iste'mol qilish bilan bog'liq shakllar (ovchilik, baliqchilik, rafting, trekking, piknik) tarqalgan bo'lib, unda atrof muhitdan bevosita foydalanilmoqda.

O'zbekiston betakror tabiatga, boy tarixiy-madaniy merosga, katta sayyohlik salohiyatiga ega mamlakat. Samarqand, Xiva, Buxoro, Shahrisabz singari qadimiylar obidalar olamga mashhur. Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab joylashgan to'rt mingdan ziyod madaniy-me'moriy yodgorliklarga ega bo'lган mamlakat.

Istiqlol yillarida yurtimizda barcha sohalar singari turizmni rivojlantirish, yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etish va sayyohlarga jahon andozalari darajasidagi servis xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ana shu e'tibor tufayli hozirgi vaqtda respublikamizning barcha hududlari bo'ylab yuzdan ortiq sayyohlik yo'nalishlari faoliyat ko'rsatyapti. Joylardagi tarixiy-madaniy ob'ektlarning 140 tasi YUNESKO tomonidan muhofazaga olingan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi 865 ta tashkilot mavjud bo'lib, bu tashkilotlarning olib borayotgan faoliyati nafaqat mahalliy, balki xalqaro turistlarni ham jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekoturizmni rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar yurtimizning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida, nafaqat xorijiy sayyoohlarni ona Vatanimizning landshafti, hayvonot va nabotot dunyosi, boy va betakror tabiatini bilan tanishtirish, balki xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini bog‘lashdan iborat. Shu bilan birga, O‘zbekiston hududida yo‘qolib borayotgan noyob hayvonot va nabotot olamini saqlash va ko‘paytirish maqsadida qo‘riqxonalar (Surxon, Nurota, Hisor, Baday-To‘qay, Zarafshon, Qizilqum, Chotqol, Zomin, Kitob), parvarishxonalar («Jayron» Ekomarkazi, Sayxun xo‘jaligi) tarkibida va atrofida jahon talablariga javob bera oladigan milliy tabiiy bog‘larni yaratish loyihalari ishlab chiqilmoqda

## **2-BOB. O‘ZBEKİSTON HUĐUDİDAGI EKOTURİSTİK RESURSLARDAN FOYDALANISH XOLATINING TAHLİLİ**

### **2.1. Samarqand turizm xizmatlar bozorining tahlili**

Mamlakatimizda xizmatlar sohasini rivojlantirish, ayniqsa turizm xizmatlarini rivojlantirishga katta e’tibor berib kelinmoqda. Ushbu sohani rivojlanishi uchun barcha huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan. Har bir sohani rivojlanishida uning infratuzilmasi, yuqori nazorat organining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda turizm sohasining barcha infratuzilmalari faoliyatini tashkil etilib, zamonaviy qiyofaga kirib bormoqda. Bunda mehmonxona xizmatlari, ovqatlantirish xizmatlarini tashkil etish, transport xizmatlari, ekskursiya xizmatlarini tashkil etish jahon standartlari darajasiga olib chiqilmoqda. Shuningdek turizm sohasida davlat siyosatini olib borish, tashkil etilayotgan yangi turizm faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlayotgan kichik biznes sub’ektlariga amaliy ko‘nikmalar berish, barcha turizm xizmatlarini tashkil etuvchi sub’ektlarni faoliyatini nazorat qilib borish maqsadida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tashkil etilgan. Hozirgi kunda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasining turizm salohiyati yuqori bo‘lgan viloyatlarda mintaqaviy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda. Shunday mintaqaviy bo‘limlardan biri Samarqand viloyat mintaqaviy bo‘limidir.

“O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo‘limi mintaqada turizmni jahon talablari va andozalari saviyasida xizmat ko‘rsatishida xususiy firma va mehmonxonalar ish faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga amaliy ko‘maklashish, turizm sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta’minalash, turistik xizmatlar infratuzilmalarini shakllantirish, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish, turizmni rivojlantirish sohasiga xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalg etish, xorijiy mamlakat, shuningdek xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikning uzoq muddatli dasturini rivojlantirish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda. Shuningdek mintaqaviy filial barcha turizm bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning faoliyat natijalarini nazorat qiladi, jamlaydi va viloyat bo‘yicha turizm bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarni rasmiylashtirib boradi.

Turizm faoliyat bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlar orasida eng muhimi bu ko‘rsatilgan turistik xizmatlar hajmidir. Samarqand viloyatida ko‘rsatilayotgan turistik xizmatlar hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda. Shu bilan birga ko‘rsatilayotgan turizm xizmati eksporti hajmi ham oshib bormoqda (3-jadval).

### **3-jadval**

#### **Samarqand viloyatida 2007-2014 yillarda ko‘rsatilgan turistik xizmatlar haqida ma’lumot**

<b>Yillar</b>	<b>Jami turizm xizmati hajmi mln. so‘m</b>	<b>O‘tgan yilga nisbatan %</b>	<b>Ko‘rsatilgan turizm xizmati eksporti, ming dollar</b>	<b>O‘tgan yilga nisbatan, %</b>
2007	11047,7	129,0	7008,9	112,1
2008	13710,4	158,4	7884,3	112,5
2009	14740,8	122,3	8235,0	104,4
2010	20461,9	122,3	9654,0	117,2
2011	23247,2	115,6	10908,0	113,0
2012	29353,9	118,1	11625,0	106,6
2013	33699,9	125,3	12342,0	106,2
2014	35642,0	124,3	12401,0	100,5

**manba: “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo‘limining hisobotlari asosida tayyorlandi.**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Samarqand viloyatida 2014 yilda 35642,0 mln. so‘mlik turizm xizmatlari ko‘rsatilgan. Turizm xizmatlari ko‘rsatish hajmi viloyatda 2007 yilga nisbatan 2014 yilda 24594,3 mln. so‘m ko‘paygan, bu esa 2007 yilga nisbatan 2014 yildaturizm xizmatlari ko‘rsatish hajmi 1,5 barobarga ko‘payganidan dalolat beradi. Ko‘rsatilgan turizm xizmati eksporti 2014 yilda 12401,0 ming dollarni tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 100,5 foizga oshgan.

Samarqand viloyatida turizm xizmatlari hajmining oshishi hamda ko‘rsatilgan turizm xizmati eksportining yuksalib borishida turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi sub’ektlarning soni, ular tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar assortimenti, sotishni rag‘batlantirish kabilalar muhim ahamiyatga

ega. Turizm sohasida biznes yurituvchilar soni ham yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Bunda ushbu sohada yaratilgan qulay biznes muhit, turizm xizmatlariga bo‘lgan talabning oshib borishi muhim omillardan bo‘lib xizmat qilmoqda. 2014 yilda Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan turizm sohasidagi firmalar soni 163 tani, mehmonxonalar soni 86 tani tashkil etmoqda (4-jadval).

#### **4-jadval**

#### **Samarqand viloyatida 2007-2014 yillarda turizm sohasida faoliyat ko‘rsatgan sub’ektlar haqida ma’lumot**

<b>Yillar</b>	<b>Turizm sohasidagi firmalar soni</b>	<b>O‘tgan yilga nisbatan, %</b>	<b>Mehmonxonalar soni</b>	<b>O‘tgan yilga nisbatan, %</b>	<b>Mehmonxonalar soni</b>	<b>O‘tgan yilga nisbatan</b>
2007	100	100,3	51	100,4	2410	110,0
2008	105	105,0	55	107,8	2725	113,1
2009	119	113,3	60	109,1	3112	114,2
2010	132	110,9	64	106,7	3265	104,9
2011	143	108,3	71	110,9	3524	107,9
2012	153	107,0	76	107,0	3814	108,2
2013	157	102,6	84	110,5	4331	113,6
2014	163	103,8	90	107,1	4520	104,4

**manba: “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo‘limining hisobotlari asosida tayyorlandi.**

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Samarqand viloyatida turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlar sonining ko‘payish dinamikasi o‘sish tendensiyasiga ega. 2007 yilda viloyatda turizm sohasidagi firmalar soni 100 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2014 yilda 163 ta, mehmonxonalar soni 2007 yilda 51 ta, 2014 yilda 90 ta, mehmonxonalarda o‘rinlar soni 2007 yildagi 2410 o‘rindan, 2014 yilda 4520 o‘rinni tashkil etdi.

Turizm sohasi bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, asosiy o‘rinni mehmonxonalar va shunga o‘xhash joylashtirish vositalari egallaydi (5-jadval).

**5-jadval**

**Samarqand viloyatida 2014 yil holati bo‘yicha turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar**

<b>Nº</b>	<b>Faoliyat yo‘nalishi</b>	<b>Soni</b>
1.	Turfirmalar va turagentlar	62
2.	Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari	90
3.	Sanatoriya, kurort muassasalari	11
	<b>Jami</b>	<b>163</b>

Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatgan sub’ektlar 2014 yil ma’lumotlariga ko‘ra Samarqand viloyatida 62 tasi turfirma va turagentlar, 90 tasi mehmonxonalar, 11 tasi sanatoriya kurort muassasalari bo‘lgan. Asosiy o‘rinda joylashtirish vositalari hamda shunga o‘xshashlar egallamoqda. Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik sub’ektlarining asosiy qismini kichik beznis va xususiy tadbirkorlar tashkil etadi.

Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlar soni o‘zidan-o‘zi oshib bormaydi. Bu esa ushbu bozorda, ya’ni turizm xizmatlar bozorida talab hajmi bilan bog‘liqdir. Talab hajmi tashrif buyurayotgan turistlar soni bilan bog‘liq. Samarqand viloyatiga kelayotgan turistlar sonida ham o‘sish ko‘zatilmoqda. 2014 yilda viloyatimizga kelgan jami turistlar soni 161,3 ming kishini tashkil etgan (6-jadval).

## 6-jadval

### 2007-2014 yillarda Samarqand viloyatiga kelgan turistlar haqida ma'lumot

Yillar	Jami kelgan turistlar soni, ming kishi	O'tgan yilga nisbatan, %	Shu jumladan			
			Chet ellik turistlar soni, ming kishi	O'tgan yilga nisbatan, %	Mahalliy turistlar soni, ming kishi	O'tgan yilga nisbatan, %
2007	95,3	100,0	70,7	103,5	24,6	100,2
2008	101,7	106,7	73,9	104,5	27,8	113,0
2009	90,2	88,7	68,4	92,6	21,8	78,4
2010	117,2	129,9	75,6	110,5	41,6	190,8
2011	122,1	104,2	84,2	111,4	37,9	91,1
2012	142,4	116,6	90,1	107,0	52,3	138,0
2013	160,8	112,9	98,0	108,8	62,8	120,1
2014	161,3	100,3	98,5	100,2	62,8	100,0

**manba: “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo‘limining hisobotlari asosida tayyorlandi.**

Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Samarqand viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlarning 61,0 foizini chet ellik turistlar, 39,0 foizini mahalliy turistlar tashkil etmoqda (2014 yil). Samarqand viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlarning umumiyligi soni 2007 yilda 95,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2014 yilda 161,3 kishini tashkil etgan. Eng quvonarlisi keyingi uch yil ichida mahalliy turistlar soni keskin o‘sib bormoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ichki turizm ham jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2013 yilda Samarqand viloyatida tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar (sayyoohlar) orasida xorijiy sayyoohlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek mamlakatimiz fuqarolari ham oxirgi yillarda tashrif bilan Samarqandga kelishlari va ularga turistik xizmatlar ko‘rsatish hajmi oshib bormoqda.

**Samarqand viloyatida tashrif buyuruvchi turistlarga xizmat ko‘rsatish**  
**(2013 yil ma’lumotlari)**

№	Ko‘rsatkichning nomi	Xizmat ko‘rsatilgan, kishi		Kishi – kun (tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar uchun)
		Bir kunlik tashrif buyuruvchilar (yekskursantlar)	Tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar (sayyoohlar)	
1.	<b>Jami</b>	58300	37232	123271
2.	Qabul qilindi		160759	-
	<b>Shu jumladan:</b>			
3.	Chet ellik tashrif buyuruvchilar	13949	86293	-
4.	Ulardan MDH mamlakatlaridan	321	11906	-
5.	O‘zbekiston Respublikasi fuqorolari	38206	62788	-
6.	<b>Jo‘natildi</b>	143		-
	<b>Shu jumladan:</b>			
7.	MDH mamlakatlariga	14	-	-
8.	Uzoq xorijiy mamlakatlarga	98	-	-
9.	O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha	31	-	-

**manba: “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo‘limining hisobotlari asosida tayyorlandi.**

Turizm sohasida eng muhimi tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish hisoblanadi. Bunda tashrif buyuruvchilarning tunab qolishi yoki bir kunga kelganligi, mahalliy yoki xorijiy turist ekanligi muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasida turistlarni qabul qilish va turistlarni jo‘natish mavjud. Qabul qilingan turistlarga joylashtirish, ovqatlantirish, ekskursiya xizmatlari ko‘rsatilsa, jo‘natilgan turistlarga transport xizmatlari, sug‘urta xizmatlari, viza xizmatlari

kabilar ko'rsatiladi. Turoperatorlik faoliyatida asosiy e'tibor beriladigan jihatlar turistlarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish asosida xizmatlarni taklif etishdan iboratdir.

Tashrif buyuruvchi turistlarga xizmatlar ko'rsatishda jamoaviy joylashtirish vositalarining o'rni beqiyosdir. Asosiy turistik xizmatlarning bir qismi aynan joylashtirish vositalarida taqdim etiladi. Samarqand viloyatida yildan yilga joylashtirish vositalari, ularning nomer fondi ham ortib bormoqda. Samarqand viloyatida hozirgi vaqtida 90 ta jamoaviy joylashtirish vositalari faoliyat olib bormoqda. Ulardagi o'rinalar soni 4520 tashkil etmoqda (8-jadval)

#### **8-jadval**

#### **2014 yilda Samarqand viloyatidagi jamoaviy joylashtirish vositalari nomer**

**(xona) fondi (birlik)**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichning nomi</b>	<b>Hisobot davri oxiriga</b>
<b>1.</b>	Jamoaviy joylashtirish vositalari o'bektlari soni	90
<b>2.</b>	Xonalari soni	2168
<b>3.</b>	Joylar/koykalar soni	4520

**manba: "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo'limining hisobotlari asosida tayyorlandi.**

Milliy turistik mahsulotlarimizga talabni shakllantirishda bozor segmentlariga e'tiborni alohida qaratish lozim. Chunki bozor segmentlariga qarab marketing kommunikatsiya vositalari tanlanadi. Bozor segmentlarining tavsiflariga qarab, ularning xulq-atvoriga ko'proq ta'sir etadigan marketing kommunikatsiya vositalari qo'llaniladi.

Turizm sohasida ham bozorni segmentlash katta ahamiyatga egadir. Butun Juhon Turistik tashkiloti maslahatiga ko'ra (BTT) iste'molchilarning yoshiga binoan bozorni segmentlash quyidagicha:

- bolalar (14 yoshgacha bo'lgan bolalar). O'zlarining ota-onalari bilan sayyohat qiluvchi va shu jumladan o'zlari mustaqil sayyohat qiluvchilar;
- yoshlar (15-24 yoshdagilar) yoshlarga xos faol, tejamlı yoshlar;
- oila a'zolari va bolalari bilan sayyohat qiluvchilar (25-44 yoshdagilar);

- o‘rta yoshdagi faol tejamkorlar, asosan bolalarsiz sayyohat qiluvchilar (45-60 yoshdagilar);
- uchinchi yoshdagi turistlar (60 yosh va undan yuqori).

Bundan tashqari turistlarning safar maqsadlari bo‘yicha ham segmentlash mumkin. Chunki sayyohatga chiquvchilarning maqsadlari bir birovidan keskin farq qiladi. Kimdir sohil bo‘ylarida dam olishni xoxlasa, kimdir tabiat go‘zalliklari, noyob hayvon hamda o‘simliklarni tomosha qilish, qimdir ish yuzasidan, tadbirkorlikni amalga oshirish, xizmat safari bilan sayyohatga chiqadi.

#### **9-jadval**

#### **2013 yilda Samarqand viloyatiga safar maqsadlari bo‘yicha joylashtirilgan shaxslar sonining taqsimoti (kishi)**

№	Ko‘rsatkichning nomi	Jami	Safar maqsadi			
			Bo‘sh vaqt, dam olish	Ish yuzasidan va kasbga oid	Davolanish va proflaktika	boshqalar
<b>1.</b>	<b>Jami</b>	130507	75176	43687	956	10688
	<b>Shu jumladan fuqorolar:</b>					
<b>2.</b>	O‘zbekistondan	64929	19206	38607	944	6172
<b>3.</b>	MDH mamlakatlaridan	10110	7619	2017	8	466
<b>4.</b>	Xorijiy davlatlardan	55468	48351	3063	4	4050

**manba: “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo‘limining hisobotlari asosida tayyorlandi.**

Samarqand viloyatiga tashrif buyuruvchi turistlarning asosiy qismi bo‘sh vaqtida dam olish maqsadida sayyohatlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek ish yuzasidan va kasbiy faoliyat yuzasidan safarlarni amalga oshirmoqda. Birgina 2013 yilda davolash va proflaktika yuzasidan safar qilgan sayyohatchilar soni 956 nafarni, ish yuzasidan va kasbga oid safar qilgan turistlar 43687 kishini, 75176 kishi bo‘sh vaqt, dam olish maqsadida safar qilishgan.

Sayyohatlarni amalga oshirishda sayyohat kunlari ham asosiy omillar va belgilardan biri hisoblanadi. Sayyohat kuniga qarab turizm sohasidan keladigan daromad, sayyohat davomida ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmiga ta’sir qiladi. Shu maqsadda 2013 yilda Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan touristlarning turish muddati bo‘yicha tahlil qilish natijalari 10-jadvalda keltirilgan.

## 10-jadval

### **Samarqand viloyatiga tashrib buyurgan touristlarni turish muddati bo‘yicha sonining taqsimoti (kishi)**

№	Ko‘rsatkich nomi	jami	Turish muddati					
			1-3 kun tunas h	4-7 kun tunas h	8-28 kun tunas h	29-91 kun tunas h	92-182 kun tunas h	183-365 kun tunas h
<b>1.</b>	<b>Jami</b>							
	Shu jumladan fuqorolar:	130507	11904 6	8903	2304	188	48	18
<b>2.</b>	O‘zbekistondan	64929	56579	6423	1767	134	8	18
<b>3.</b>	MDH mamlakatlarida n	10110	9478	519	108	5	-	-
<b>4</b>	Xorijiy davlatlardan	55468	52989	1961	429	49	40	-

**manba: “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Samarqand mintaqaviy bo‘limining hisobotlari asosida tayyorlandi.**

Yuqoridagi ushbu jadval tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, Samarqand viloyatiga tashrif buyurayotgan touristlar sayyohat muddati asosan qisqa muddatli kunlarga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, 1-3 kun, 4-7 kun va ma’lum darajada bir oygacha bo‘lgan muddatga kelayotgan touristlar soni ham asosiy o‘rinlardan birida turibdi.

Umuman Samarqand viloyatida turizm sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi ham tarkibiy o‘sib bormoqda. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlar soni ham yildan-yilga sezilarli darajada

o'sib bormoqda. Asosiy e'tiborni potensial turistlarni milliy turmahsulotlarimiz haqidagi axborot bilan o'z vaqtida xabardorligini ta'minlash, ijobiy obru-ye'tiborni shakllantirish hamda turmahsulotlar sotilishini jadallashtirish, talabni shakllantirish tadbirlarini amalga oshirishga qaratish lozim.

## **2.2. O'zbekistondag'i asosiy ekoturistik hududlar va ulardan foydalanish darajasi tahlili**

Ma'lumki, turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Butunjahon Sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra mazkur soha daromadi yiliga 1,5 trillion AQSH dollarini tashkil etdi.

Turizm va turistik xizmatlarning tobora rivojlanib borishi natijasida so'nggi yillarda uning noan'anaviy turlari – ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, diniy turizm, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladiki, bugungi kunda mazkur yo'nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy qilayotgan sohalar sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, bugun ko'pchilikning diqqat-e'tiborida bo'layotgan va turizmning eng istiqbolli turlaridan biri ekoturizm jadal rivojlanmoqda.

Ekologik turizm – muayyan hududning inson ta'siriga juda kam uchragan yoki deyarli uchramagan qismlariga uning ekotizimlariga salbiy ta'sir etmasdan noyob tabiatni va madaniy-etnografik xususiyatlarini o'rganishdir. 2002 yili Kanadaning Kvebek shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon ekoturizm Sammitida qabul qilingan "Kvebek deklaratsiyasi"ning asosiy tamoyillaridan biri ham "...sayohat qilinayotgan mintaqaning tabiiy va madaniy merosini sayyoohlarga tushuntirish"dan iboratdir.

Ma'lumotlarga qaraganda, ekoturizmning sayyohlik bozoridagi ulushi 10-14 foizni tashkil etadi. So'ngi yillarda jahon mamlakatlarida ekologik turizmga e'tibor kuchayib borayotganligini hisobga olgan holda, ekologik turizmni yanada

rivojlantirish maqsadida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2002 yilni “Ekologik turizm yili” deb e’lon qilgandi.

Bu esa ekoturizm sohasida havaskor va kasb bilan bog‘liq turizm tarmog‘iga bo‘lgan qiziqishning ortishiga va sayohatlarni takomillashtirilishiga sabab bo‘ldi. Ekoturizmning rivojlanishi sayyoohlarni tabiat qo‘yniga kengroq jalb etish bilan birga go‘zal tabiatimizni, tabiiy landshaftlarni, noyob o‘simplik va hayvonot dunyosini saqlash va ko‘paytirish muammolarini hal qilishga katta hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonning jo‘g‘rofik jihatdan joylashuvi mazkur turni rivojlantirish uchun juda qulay bo‘lib, uning hududida tabiiy landshaftning barcha xilma-xilligi mujassam. Xususan, go‘zal vodiylar, tog‘u dashtlar, cho‘li biyobonlar, daryo va ko‘llar butun borlig‘i bilan insonga o‘zining siru, asrorlarini, go‘zalligi va latofatini, fayzu-taravotini to‘laligicha namoyon etadi. Ushbu noyob go‘shalarining ba’zilari, taraqqiyotdan ancha olisda joylashganligi tufayli sivilizatsiya o‘chog‘laridan yiroqda, hafta o‘n kunlab sayru-sayohat qilishining mumkin. Eng asosiysi, bunday o‘ziga xos tabiiy maskanlarda butun borliq asl holida saqlanmoqda. Mamlakatimizning jonli tabiatni ifori o‘zining bir-biridan ajoyib va g‘aroyib ko‘rinishlari, rang-barang tabiiy manzaralari, o‘simplik va hayvonot dunyosi, quyoshning zarrin nurlari va qulay iqlimi, bir-birini takrorlamaydigan o‘ziga xos maftunkorligi – ko‘plam g‘orlar, muzliklar va ko‘llar mavjud. Purviqor tog‘lar, payonsiz cho‘llar, mamlakatimiz xalqlarining boy madaniy merosi, ajoyib yodgorliklar O‘zbekistonga 100 minglab sayyoohlarni tashrif buyurishiga sabab bo‘layotir. Shu bois O‘zbekiston jahon sayyoqlik markazlaridan biriga aylanmoqda.

Yurtimizda sayyoohlarni nafaqat Toshkent, Samarqand, Jizzax, Farg‘ona viloyatining tog‘li hududlariga, balki Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatidagi cho‘llarga, dala-dashtlarga jalb qilish mumkin. Ayniqsa, 1991 yil Navoiy viloyati hududidagi “Sarmishsoy” tabiat bog‘i nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun ekoturizm sohasida juda muhim ahamiyat kasb e’tuvchi o‘ziga xos tabiiy madaniy boylik hisoblanadi. 5-7 ming yil ilgari ajdodlarimiz tomonidan mahorat bilan qoyalarga chizilgan 12 mingga yaqin noyob petrogriflar galeriyasi,

shuningdek, hududdagi o'simlik va hayvonot olami har qanday kishida taassurot o'yg'otadi.

Olingen ma'lumotlarga tahlili shuni ko'rsatadiki, tashrif buyurayotgan sayyoohlarning 41 foizi (50 yoshdan yuqori) aynan yurtimizni eng xo'shmanzara hamda tabiiy landshaftlarni yaxshi saqlanib qoligan noyob hududlarini ko'rishni xoxlashsa, sayyoohlarning 26 foizi (25-30 yosh) ekologik muammolari mavjud hududlarga borish istagida ekanligini bildirishgan. Ekoturizmni rivojlantirishning yana bir ijobiy tomoni shundaki, unda sayohatchilarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalar talab qilinmaydi. Turizmning bu turida an'anaviy hordiq chiqarish va maishiy qulayliklar ikkinchi darajali hisoblanadi. Zero, tabiatning betakror manzaralarini tomosha qilish uchun maxsus palatka va kempinglar yashash mumkin. Biroq boshqa tomonlarda ekoturizm malakali mutaxassisni, ya'ni har bir guruh uchun ekolog, sayyoohlarning xavfsizligini ta'minlovchi xodimni talab qiladi. Bundan tashqari ekologik turlarni taklif etuvchi kompaniyalarning barcha harakatlari tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik talablari asosida olib borilishi shart.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madaniyat, tarix va tabiatni o'rganishga qaratilgan turlardan keladigan foyda, umuman, turistik daromadlar hajmining 15-23 foizini tashkil etar ekan. Demak, O'zbekiston uchun ekoturizm strategiyasi yaratish – bu yangi ish o'rinlarini yaratish va tabiatning noyob yodgorliklarini muhofaza qilish va qayta tiklash uchun mablag'larga ega bo'lish demakdir.

Yurtimizning barcha viloyatlarida ekoturizm markazlarini tashkil etish imkoniyati mavjud. O'zbekistonda ekoturizmning imtiyozli tomoni shundaki, sayohatlarni deyarli butun yil davomida tashkil etish mumkin. Bahorda sahrolar va cho'llar o'ta chiroyli manzara kasb etadi, yoz faslining boshida esa o'simliklar quriy boshlaydi va bu vaqtdagi tabiat manzarasi o'zining jozibadorligini yo'qotadi. Biroq aynan shu vaqtning o'zida mamlakatimizning tog'li hududlarida dam olish sayyoohlarni qiziqarlidir. Sayyoohlarni jaib qilish uchun birinchi navbatda qulay xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaratish, ularni qulay transport vositalari bilan ta'minlash va albatta, O'zbekistonning ekoturistik salohiyatini jahon miqyosida

targ‘ib qilish zarur. Afsuski, mamlakatimizda ekologik turizmning hozircha ko‘proq tabiat ne’matlarini iste’mol qilish bilan bog‘liq shakllar (ovchilik, baliqchilik, rafting, trekking, piknik) tarqalgan bo‘lib, unda atrof muhitdan bevosita foydalanilmoqda. Ammo bunday yo‘nalishning noyob ekotizimlar hamda milliy bog‘larni asrashdagi samarasi past. Chunki daromadlar muayyan darajada buzilgan ekologik muovazanatni qayta tiklash tadbirlariga har doim ham sarflanavermaydi. Sohani rivojlantirishda dam olish uylari mehmonxona, turistik bazalar, yo‘llar, muhandislik tarmoqlarini qurish bilan bog‘liq barcha loyihalarni ekologik baholash ham muhim omil bo‘lmoqda. Eng muhim, ekoturizm inson va tabiat o‘yg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa kishilarning hayotiy kuch va imkoniyatlarini tiklash hamda o‘zining ona tabiatning ajralmas bo‘laki sifatida his qilishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Shunday ekan, ekoturizm barqaror ekologik taraqqiyotni ta’minlash, atrof tabiiy muhitni kelajak avlodlar uchun asrashning muhim omillaridan biri bo‘lib qolaveradi. Ekoturizmni rivojlantirish uchun albatta, qonunchilikni takomillashtirish, ya’ni amaldagi qonunga ekoturizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish borasidagi normalarni kiritishimiz lozim bo‘ladi.

Tadqiqotlarimiz davomida Jizzax va Samarqand viloyatidagi ekoturistik resurslar, ulardan foydalanish darajasi o‘rganildi.

Keyingi yillarda o‘lkamiz tabiati, go‘zal va xushmanzara go‘shalariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Jumladan, pirviqor tog‘lar, sharqiroq soyyu sulim daraxtzhorlari bilan kishilarga roxatbaxsh etuvchi Zomin tabiati yildan yilga sayohlar bilan tulib-toshmoqda. Mazkur hudud tabiiy iqlimiga ko‘ra dunyoga mashhur Shveysariyaga qiyos etilishi ham bejiz emas.

O‘zbekistonda ekogologik turizm bugungi kunda keng rivojlanib, o‘lkamiz tabiatining o‘ziga xosligini ko‘pchilikni xayratda qoldiradi. Binobarin, geografik va tabiiy sharoitlar ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qulaydir. Bu yerda bir paytning o‘zida cheksiz sayrolarni ham baland qorli tog‘lar, vodiy va vohalar, suv mo‘l daryolarning betakror go‘zalligini uchratish mumkin.

Jizzat viloyatida ekoturizm Nurota tog‘ tizmasida “Nurota – Qizilqum - Biorezrevati” hududda tashkil etilgan bo‘lib, qolgan joylarida stixiyali, ya’ni ichki turizm rivojlangan. Viloyatning 10 ga yaqin mehmonxonalarida yiliga 35 mingdan ortiq sayoh qabul qilish rejalashtirilgan bo‘lib, bu asosan “Davlat muhofazasi ro‘yxati”ga kiritilgan muqaddas qadam joylarga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni, hududda 42 tarixiy obida, muqaddas ziyyaratgoh, 267 ta arxeologik manzilgoh, 63 ta monumental yodgorlik – haykallar, byustlar, xotira maydonlari bo‘lib, turizmni asosini tashkil etadi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning Turkiston tog‘ tizmasi etaklarida joylashgan o‘zining so‘lim tabiat va shifobaxsh havosiyu bo‘loqlari bilan ma’lum va mashhur Zomin Baxmal tumanlarida ekoturizmni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bunda sayohat uch ekologik yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi. Bular Jizzax – Peshog‘or – Xo‘jasarov ota ziyyaratgohi va Peshog‘or qishlog‘i boshlanishidagi g‘or, Jizzax – Zomin – Milliy bog‘i – Zomin muzey va ming yillik yong‘oq hamda Zomin Davlat qo‘riqxonasi hududi yo‘nalishlari. Ekoturizm marshrutlarida hududlarga ortiqcha yo‘nalish kiritilmaydi. Ya’ni mehmonxona, restoran va maishiy xizmat ko‘rsatish uchun alohida binolar qo‘rilmaydi, balki shu hududdagi aholining turmish tarziga xos ravishda ekosayohlar ko‘tib olinadi, shu turmish tarziga xos yashash ta’milanadi.

Ta’kidlash kerakki, qishlorqlarimizning farovonligini oshirish, aholi madaniyatini saqlash va targ‘ib qilishda ekoturizmning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Zero, bunda aholining atrof muhit tabiiy yodgorliklarini saqlashda faolligi oshiriladi, ekoturistlar jalb qilish va ularga servis xizmat ko‘rsatish orqali viloyatga iqtisodiy jihatdan ham foyda keladi.

Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqlarda yashaydi. Qishloq joylarda mehnat resurslari tez o‘sib borayotganligi va ularning ish o‘rinlariga nisbatan ko‘pligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va servis, xususan turizm rivoji uchun juda katta mehnat imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Qishloq hududlarida ish bilan band bo‘lmagan ortiqcha

ishchi kuchini ekologik turizm singari sayyohlikning jozibador turiga taqsimlash samaralidir.

Chakilkalon tog‘larining tik yonbag‘rida Zarafshon vodiysining yirik shaharlaridan biri – Urgut shahri joylashgan. Ehtimol, qardosh Tojikiston maydonidagi Panjakent shahri o‘zining aholisi soni va joylashgan o‘rni bilan Urgutga o‘xshab ketar. Lekin Urgut qo‘shti shahardan farqliroq tog‘ oldida emas, o‘zida joylashgan. Urgut shahri tog‘ning ichiga yorib kirgan soy bo‘yida joylashib, ikki tomondan ulkan qoyalar bilan o‘rab olingan. Shaharning o‘rtasida yozda sershovqin, bahorda esa ulkan toshlarni koptok singari o‘ynatib oqizadigan daryo bor. Urgutning ilonizi ko‘chalari vodiyning relefiga bo‘ysungan bo‘lib, undagi barcha past-balandlik va qiyaliklarni takrorlaydi.

Urgutga kelgan vaqtingizda beixtiyor o‘ziningizni tog‘da ekanligingizni sezasiz. Bog‘lar va uylar orqasida yashiringan tog‘lar o‘zining borligi haqida salqin shabadasiyu gullar va o‘tlar anvoysi hidi bilan bilintiradi. Yozning saratonida quyosh charaqlab turgan taqdirda ham hamma vaqt salqin bo‘ladi va osmon musaffo tiniqligi bilan ajralib turadi. Salqin havo daryoning boshlanishidagi ko‘p sonli buloq suvlari hisobiga paydo bo‘ladi, ular esa o‘z atrofidagi bog‘lar va ekinlarning hayot manbaidir.

Urgut jumhuriyatimiz haritasidagi yosh va ayni bir vaqtida tarixdagi keksa shaharlardan biri. Keyingi 1500 yil ichida u bir necha marta vayron bo‘ldi va yana qayta tiklanib shaharga aylandi. Hatto, navbatdagi dushman uni yoqib, yo‘q qilib yo‘qotgan taqdirda ham u shahar nomini yo‘qotmas edi. Haroba va kulkonalardan yana qasr devorlari, aholi yashovchi va mehnat qiluvchi mahallalar paydo bo‘lardi, bu joylarda hayot qaynab, mashhur Urgut bozori ko‘p tilli aholi bilan to‘lardi. Magian va Farobdan, Varganzidan va boshqa tog‘li joylardan kelgan odamlar bozorni to‘ldirardi.

Biz bu aholi punktining qachon paydo bo‘lganini aniq bilmaymiz. Lekin uning juda keksaligi haqida qoyada topilgan suratlar xabar berib, mutaxassislar fikricha, bu rasmlarning yoshi 5-6 ming yillarga borib qadaladi.

Shahar yonidagi qoyalarning birida nodir surat topilgan bo‘lib, u asrlar qa’ridagi noma’lum ovchi boshiga tushgan musibat haqida xabar beradi. Qoya yonida yelkasi bilan chalqancha yotgan odam tasvirlanib, qo‘llari ikki tarafga yoyilgan. Uning yonida yerga tashlangan kamon va otilmagan o‘q, uning yonida ikki ilon yotibdi. Ehtimol, bu odam zaharli ilonlar qurboni bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Antik davr yunon tarixchilaridan biri Arrianning Iskandar Zulqarnayn tarixiy janglaridan birini ta’riflab yozishicha, makedoniyaliklar Maroqand (Samarqand) yonidagi dindan qaytganlar shahrini vayron etishgan. Ularning avlodlari ancha oldin Gresiyadan Sug‘diyonaga kelib, tog‘ oldida kichik qishloq tashkil qilishgan ekan.

Urgutga yaqin joydagi So‘fiyon qishlog‘ida arxeologlar xristianlarga oid garffitlar (ganchdagi rasmga o‘xshash toshga qabariq holda tushirilgan rasmlar) topishgan, unda xoch rasmi va eramizning birinchi asriga xos ariy xatlari bo‘lgan. X asrda yashagan arab tarixchisi Istanining quyidagi ma’lumoti e’tiborga molik: “Ibn Xaukal bu joyda (Urgutda) ko‘p mesopatamiyalik xristianlarni ko‘rgan, ular bu yerga holi joy va toza havo qidirib kelishgan”. Xristianlar jamoasi joylashgan joy aniq ko‘rsatilgan, u Vazkert qishlog‘i (hozirgi Qing‘ir qishlog‘i)dir.

Urgut bilan bog‘liq ko‘plab tarixiy ma’lumotlar bor. Masalan, V-VII asrlarda bu joyda zoroostriyalar – o‘tga sig‘inuvchilarining olov turadigan ibodatxonalarini joylashgan. Sug‘diyonada Samarqanddan keyin Andak (sug‘dlar vaqtidagi Urgut) ikkinchi o‘rinda din markazi bo‘lgan. Eramizning birinchi ming yilligi o‘rtalaridayoq sharq bozorlarida Urgutning mayizi va turshagi mashhur bo‘lgan.

Qadimi Urgut yonidagi kichik qishloq Qoqishbagnda alohida ibodatxona bo‘lib, unda faqat turk yigitlari navbatdagi bosqinga borishdan oldin ibodat qilishgan.

VIII asrning birinchi yarmida arablar Urgut qal’asini jang bilan egallab olishgan va uning suv bilan ta’minlovchi murakkab sug‘orish tarmoqlarini buzib tashlashgan. Urgut bu falokatni ham boshdan o‘tkazib, qaytadan qad ko‘tardi. Shu davrdan keyingi yilnomalarda Urgut to‘g‘risida biron og‘iz so‘z uchramadi. Aftidan o‘zaro urushlar faqat katta shaharlarnigina emas, kichik shaharlarning

shon-shuhratini yo‘q qilgan. Lekin Urgutning shifobaxsh havosi haqidagi shuhrati saqlanib qolgan. Bu joyda yozning jaziramasidan qochib, vaqt o‘tkazish uchun Buxoro amiri keladigan bo‘lgan. Mahalliy aholining aytishiga ko‘ra, Urgutga Sangijuman va Magitan dovonlari orqali maxsus yo‘l qurilgan. O‘sha vaqtarda sakkiz qorabayir ot qo‘shilgan arava sutkada tog‘ yo‘llarida 50 kilometrga qadar yo‘l bosgan. Bu yo‘lning qoldiqlari ba’zi joylarda saqlanib qolgan.

1868 yilning may oyida rus podsho armiyasi kuchli janglardan keyin Urgutni egallab, qal’a devorlari va ichki istehkomlarni buzib tashlagan. Kelasi yil bu joyni kelib ko‘rgan O‘rtta Osiyoning birinchi tekshiruvchisi A.P.Fedchenko o‘z hisobotida quyidagilarni yozadi: “Urgut shahri 5000 aholiga ega va Shahrisabz tog‘larining tor darasida joylashgan. Kenggina bozori, bir necha masjidi va hozir buzilgan qal’asi bor”(24,83). Hisobot davrida olim shaharning e’tiborga loyiq joylarini ta’riflaydi: “Chorchnor bog‘i elliklar atrofidagi keksa daraxtlardan tashkil topadi. Ko‘philik daraxtlarda ulkan kovaklar bo‘lib, ulardan biri va eng kattasi kenggina xona shaklida bo‘lib, unda mo‘ysafid qorovul yashaydi”(24,84).

Hozir Urgut go‘zallashmoqda. Keng ko‘chalar va xiyobonlar paydo bo‘ldi, ko‘p qavatli binolar paydo bo‘ldi, tamaki-fermentlash zavodi mahsulot bermoqda, gilam zavodi mahsuloti keng tarqalmoqda. Shahar asta-sekin oldi zonasiga surilib, eski shaharning ko‘p asrlik qismlari saqlanib qolmoqda.

Bundan 130 yil oldin A.P.Fedchenko aytgan joylar ham asrab qolingan. Chorchnordagi 300 yillik chinorlarning barglari shabadada shitirlaydi. Daraxt tanasidagi kovakda joylashgan xona ham o‘z joyida va bu joyga ba’zida dam olish zonasini qorovuli kirib turadi. Shahardan yuqoriqoqdagi ikki toshqin tarmoqlari – Yaxton va Murinak birlashgan joyda esa bolalar oromgohlari joylashgan.

Endi Urgut nomiga hamohang gullayotgan shahar nomi baralla ayttilmoqda.

Oyqor cho‘qqisining nomi “oy” va “qor” so‘zlarining qo‘shilishidan kelib chiqqan bo‘lib, u Sangzor vodiysining ko‘rki va Turkiston tizma tog‘larining bir qismi bo‘lgan Chumqartog‘ning baland joyida joylashgan. Chumqartog‘ning Oyqordan ham balandroq qismlari ko‘p bo‘lsa-da, ular ichida Oyqor o‘z go‘zalligi bilan ajralib turadi. Oyqor ulkan, mukammal va yodda qoladigandir. Uning

gumbazsimon cho‘qqisi nimasi bilandir o‘chgan vulqon konusini eslatadi va uzoqdan ulkanligi bilan kishida taassurot qoldiradi. Cho‘qqi xuddi ufq ustida o‘zining tik yonbag‘irlari bilan muallaq turgandek ko‘rinadi.

Oyqor cho‘qqisi yozning faqat ikki oyidagina qor qatlamidan holi bo‘ladi. Bu davrda yonbag‘irlarni qalin o‘t va gullar gilami qoplaydi. Boshqa davrlarda, hatto vodiyda saraton jaziramasi boshlangan davrda ham uning cho‘qqisida qor bo‘ladi. Oyli tunlarda qor qoplami o‘zidan sehrli nur taratgandek bo‘ladi. Shimolga qaragan tik yonbag‘ir o‘zgacha yorqin oy nuriga cho‘madi. Oyqorning dengiz sathidan 3200 metr, O‘sma posyolkasidan 2500 metr baland bo‘lgan ulkan gavdasi bunday tunlarda oy nurida billurdek yaltiraydi, ayniqsa, to‘lin oyli kechalarda ajoyib taassurot qoldiradi.

Shu sababli Oyqor tog‘lar ichida shunday go‘zal nom bilan atalgan.

Xalq o‘rtasida bu afsonaviy toqqa atab ko‘plab rivoyatlar, hikoyalar to‘qilgan va hatto qo‘shiq qilib kuylangan. Afsonlardan birida tog‘ etagidagi tarixi uzoq asrlarga bog‘langan O‘sma posyolkasi (hozir O‘sma posyolkasi) nomining kelib chiqishiga izoh berilgan.

### **2.3. O‘zbekiston hududida mavjud ekoturistik mashrutlarning taxlili**

O‘zbekiston hududini ekoturizm imkoniyatlarini o‘rganishda asosiy ilmiy izlanishlardan biri uning hududini ekoturizm nuqtai-nazaridan ekoturistik marshrutlar yaratishdir. Chunki bunda hududning ekoturistik qiymatini belgilovchi jami tabiiy geografik omillar tahlil qilinadi, resurslarning holati o‘rganiladi, baholanadi va ekoturlarni yuqori darajada o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan amaliy tadbirlar hisobga olinadi. Ekoturistik marshrutlarga bunday yondashuv ekoturizm uchun kelajakda foydalanish mumkin bo‘lgan hududlarni aniqlash, ekoturlar saviyasini ko‘tarish kabi amaliy vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Taklif qilingan “O‘zbekiston hududini ekoturizm nuqtai-nazaridan marshrut ishlab chiqish” ekoturizm resurslarining mavjudligi va ekoturizm imkoniyatining darajasiga ko‘ra amalga oshirilgan. Rayonlashtirish asosida ajratilgan hududiy birliklar tabiiy komplekslarning regional xususiyatlarini aks ettirgan holda landshaftlarning o‘ziga xos majmuasi bilan ham ajralib turadi.

A.G.Isachenko (1968), N.A.Kogay (1969) va boshqa olimlarning fikricha, mavjud umumilmiy tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarini hududni amaliy maqsadlarda rayonlashtirish sxemasini shakllantirishda, ayniqsa katta taksonomik birliklarni ajratishda foydalanish mumkin, degan fikrlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston hududini ekoturizm nuqtai-nazaridan rayonlashtirganda uni Turon va Markaziy Qozog‘iston ekoturistik provinsiyalarining bir qismi deb qaraldi. Ular L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasida ajratgan Turon va qisman Markaziy Qozog‘iston (Ustyurt, Orolqum) provinsiyalariga to‘g‘ri keladi. Ular Yer yuzasining zonalarga bo‘linish sistemasida va O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasida o‘ziga xos geografik o‘rni, orografiyasi va makrorelefi, o‘ziga xos iqlim rejimi, termik sharoiti va resurslari bilan ajralib turadi. Turon ekoturistik provinsiyasi o‘z navbatida 2 ta - tekislik va tog‘ oldi – tog‘ kichik provinsiyalariga ajratiladi. Ularning har biri boshqalaridan morfostrukturasiga ko‘ra hududining umumiyligi, vujudga kelishi va rivojlanish tarixini, ayniqsa, neogen-to‘rtlamchi ( $N-O_2$ ) davrlarda umumiyligi va hududining o‘ziga xos zonal tipiga (gorizontal yoki vertikal) ega ekanligi hamda o‘ziga xos tabiiy resurslari, ekoturistik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bunday bo‘linish asosida aholini ekologik toza hududlarga ortayotgan talabini qondiradigan resurslar haqida boshlang‘ich ma’lumotni yig‘ish imkoniga ega bo‘lish mumkin.

Kichik provinsiyalar ichida ham tabiiy sharoitining ichki farqlanishi kuzatiladi. Bu ayniqsa geologik-geomorfologik, iqlimi, gidrologik va boshqa sharoitlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kichik provinsiyalardagi tabiiy sharoitning xilma-xilligi va ulardagi tarixiy-iqtisodiy sharoitning ham o‘ziga xosligi ular hududida ekoturlarni tashkillashtirishda bu farqlarni inobatga olgan holda yondashishni taqozo etadi. Joyning ekoturistik qiymatini belgilashda muhim o‘rin

tutadigan relef, iqlim va gidrologik sharoitlarning hamda o’simlik qoplamining har bir kichik provinsiyada xilma-xilligi va o’ziga xosligi kichik provinsiyalarning har birida ekoturistik rayonlarni ajratish imkonini beradi. Har bir ajratilgan rayon tabiiy sharoitining o’ziga xos kompleksi, resursi, ya’ni tabiiy sharoitining ekoturizm uchun har xil darajada yaroqliligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagi prinsipga asoslangan holda O’zbekistonning tekislik qismida Ustyurt, Orol va Orolbo‘yi, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon, tog‘ oldi – tog‘li qismida esa Mirzacho‘l, Arnasoy-Aydar, Sirdaryobo‘yi, Chirchiq-Ohongaron, Farg‘ona, O‘rta Zarafshon, Hisor, Qashqadaryo, Surxondaryo ekoturistik rayonlari ajratildi. Ekoturistik rayon ekoturistik resurslarga ega, ekoturizmning kerakli darajada rivoji uchun shart-sharoitiga ega bo‘lgan va boshqa hududlardan ekoturizmning ma’lum bir yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslanganligi bilan ajralib turadigan hududdir. Ajratilgan rayonlar landshaftlar strukturasi, dinamik holati, tabiatdan foydalanish harakteri va tabiatni muhofaza qilish majmuasi bilan ham bir-biridan farqlanadi.

Ma’lumki, ekoturistik ob’ekt hududiy uzluksiz yoki areal ko‘rinishda bo‘ladi. Shuning uchun rayon hududidagi vohalarni, alohida muhofaza qilinadigan hududlarni (qo‘riqxona, buyurtmalarni) ekoturizmning ma’lum bir yo‘nalishi bo‘yicha ixtisoslanganligi bilan ajralib turadigan kichik rayon, arxeologik va tabiat yodgorliklarini, qadamjoylarni, arxitektura ob’ektlarini, g‘irlarni, sharsharalarni va hakazolarni kichik rayon ichidagi mikrorayon yoki joy, punkt, ob’ekt sifatida ajratildi.

Ekoturistik rayonlashtirishda quyidagi taksonomik birliklar ajratildi: ekoturistik provinsiya – ekoturistik kichik provinsiya – ekoturistik rayon, ekoturistik kichik rayon – ekoturistik mikrorayon (joy, punkt yoki ob’ekt).

Ekoturistik rayonlarning tavsifini berishda eng avvalo ekoturistik resurslar, ya’ni tabiat manzarasining asosini tashkil etuvchi “omillar”- relef xususiyati, suv resurslari, iqlim hamda o’simlik qoplami alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ekoturistik rayonlardagi geoekologik vaziyat ham alohida o‘rin tutadi.

Ushbu ilmiy ish asosida ekoturizm yo‘nalishi bo‘yicha masshtabi 1:1 000 000 bo‘lgan O’zbekistonning ekoturistik rayonlari va marshrutlari kartasini

yaratish – loyiha ishi amalga oshirildi. Ekoturistik kartada yurtimizning boy va betakror tabiatini chet el turistlariga ko‘rsatish uchun sayohatlarni uyushtirishda, qulaylik yaratishni ko‘zda tutib, ajratilgan taksonomik birliklar va ekoturistik marshrutlar o‘z aksini topgan. Tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashda yuzaga keladigan ekologik munosabatlarni boshqarish va tartibga solishda ekoturistik marshrutlarni ko‘rsatuvchi kartaning ahamiyati katta.

O‘zbekistonning ekoturistik kartasi o‘quv muassasalari, turistik tashkilotlar va firmalar, mehmonxona va sayyoohlarning turar joylarida hamda mamlakatimizning chet eldagি vakolatxonalarida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Karta ekoturizmga oid barcha yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Kartani yaratishdan maqsad – O‘zbekistonda ekoturizmni ommalashtirish uchun ekoturistik rayonlar va ulardagi ekoturistik marshrutlarni aks ettirishdan iborat. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshirildi:

- ✓ respublika bo‘yicha ekoturistik rayonlar va ekoturlarni ajratish hamda uni kartaga tushirish uchun ma’lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilish;
- ✓ respublika bo‘yicha 1: 1 000 000 masshtabda kartografik asosni yaratish va unga tegishli ekoturistik rayonlarni tushirish;
- ✓ har bir rayon bo‘yicha ekomarshrutlarni yig‘ish va uni kartaga tushirish;
- ✓ karta maketi va elektron versiyasini yaratish hamda ularni sinovdan o‘tkazish.

Karta 1:1 000 000 masshtabda, to‘g‘ri konusli proyeksiyada tuzildi. Karta komponovkasi ishlab chiqildi. Davlat chegaralari, viloyat chegaralari to‘liq ko‘rsatildi. Kartada respublikaning eng chekka nuqtalari ko‘rsatilib, ularning kordinatalari yozib qo‘yildi. Shartli belgilarning joyi aniqlandi. Qo‘simecha kesma kartalar, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va tabiat yodgorliklarning suratlari ham berildi.

**Foydalanilgan kartografik manbalar:** Geografik asos tuzilib, umumgeografik kartaning ba’zi elementlari tasvirlandi, ya’ni suv ob’ektlari,

mavzuga bog‘liq holda aholi yashaydigan joylar, aloqa yo‘llari (xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan temir va avtomobil yo‘llari), qumliklar va dovonlar.

Ushbu geografik asosdagi berilgan ma’lumotlar turistlar uchun joyni oriyentirlash, tabiiy muhitning xususiyatlari va qonuniyatlarini ko‘rish va ulardan foydalanish imkoniyati va shu bilan birga ekologik muhitni bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatishga imkon beradi. Masalan, Aydarko‘l kompleksi va uning ekologik xususiyatlari.

Geografik asos mavzuning mazmuniga mos qilib tanlandi. Umuman olganda geografik asos juda zarur elementlar sistemasidan biri bo‘lib, kartaning asosiy mazmunini to‘la tasvirlash imkonini yaratdi.

Kartani asosiy mazmuniga quyidagilar kiradi: ekoturistik rayonlar; ekoturistik marshrutlar; ekoturizm elementlari; tarixiy va arxeologik yodgorliklar, tabiiy yodgorliklar; diniy va ma’naviy, ma’rifiy hamda alohida muhofaza etiladigan hududlar; servis va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari.

Ekoturizm rayonlari va ularning chegaralari hamda ularning nomlari rang bilan berildi. Undagi bevosita ko‘rsatiladigan ob’ektlar geometrik va badiiy shakllarda ko‘rsatildi.

Tasvirlanadigan ob’ektlar sifat va miqdor ko‘rsatgichida, marshrut chiziqlar har xil rangda berildi. Servis xizmati bilan bog‘liq bo‘lgan ob’ektlar ham tasvirlandi.

Karta tuzishda zarur bo‘lgan turistik manba va ma’lumot alohida guruhlarga bo‘linib, oxirgi yilgi ma’lumotlarga asoslandi.

Dissertatsiyada hamma rayonlarga tavsif berish uning hajmini kattalashtirib yuboradi, shuning uchun ham ekoturistik rayonlarga tavsif berish usulini ko‘rsatish maqsadida geografik o‘rni qulay bo‘lgan, tabiiy sharoiti, ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo‘lgan, sanoat rivojlangan va aholi zich yashaydigan Chirchiq-Ohangaron rayoniga tavsif keltirildi.

Chirchiq-Ohangaron rayonida ekoturistlar borib ko‘radigan va tanishadigan, tabiat yaxshi saqlanib qolgan qo‘riqlanadigan hududlar mavjud va ular juda katta ekoturistik imkoniyatga ega.

Rayon ekosistema va landshaftlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi va u ekologik hamda bioiqlimiyligini nuqtai-nazardan qulayligi bilan ko‘zga tashlanadi.

Rayonda kamyob o‘simlik va hayvonot turlari mavjud bo‘lib, ular ekoturlar uchun ob’ekt bo‘la oladilar.

Rayon hududida ham ekoturistlarni qiziqtiradigan, ular o‘rganishi mumkin bo‘lgan ekologik muammolar mavjud (atmosfera havosi, yer usti, yer osti suvlarini va tuproqlarini ifloslanishi va hk.).

Rayon iqlimi, ob-havosi yil davomida dam olish va ekoturizmning rivojlanishi uchun qulayligi bilan ajralib turadi. O‘rtacha balandlikdagi va baland tog‘liklarda yozgi haroratning vodiylardagiga nisbatan 5-15 ga past bo‘lishi, qishining juda ham sovuq emasligi, qor qoplaming qalinligi rayon tog‘lik hududlaridan yil davomida ekoturizm maqsadlarida foydalanish imkonining yuqoriligidan dalolat beradi.

Chirchiq, Chotqol, Piskom, Ko‘ksuv, Ugom, Ohangaron kabi daryolardan va Chorvoq, G‘azalkent, Ohangaron suv omborlaridan, mavjud ko‘plab ko‘llaridan suv sporti va turizm maqsadlarida foydalanish mumkin. Gidrogeologik jihatdan ekoturizm uchun eng qulay sharoit tog‘ oldi chala cho‘l-quruq dasht mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Rayon hududi ekoturizmning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan jami resurslarga ega. Maftunkor tabiat, uning xilma-xilligi ekoturistlarni jalb qiluvchi asosiy omildir. Rayon hududi o‘zining to‘qay, voha va tog‘ landshaftlari, tog‘ soylari va buloqlari, ko‘llari, muzliklari, g‘orlari, suv omborlari, kanallari, yer osti mineral suvlarini bilan ekoturizm markaziga aylanishi mumkin. Rayonda ekoturizmning barcha turlarini (ilmiy, tabiatning tarixi bilan bog‘liq sayohatlar, sarguzasht turizm, tabiat rezervatlariga sayohat) rivojlantirish imkon mavjud. Shuni aytish lozimki, Chirchiq-Ohangaron ekoturistik rayonining tog‘oldi va tog‘lik qismida tabiiy sharoit iqtisodiy-ijtimoiy omillar qulay bo‘lgan joylarida tabiiy jarayonlarning kechishini va seysmik havfni inobatga olgan holda

ekoturistik marshrutlarni kengaytirish, yangilarini tashkil etish va ekoturistlarni dam olib, davolanib, sayr-sayohatda bo‘lib, kayfiyatlarini yaxshilashlari imkoniyati mavjud.

Ekoturistik marshrutlar yoki ekoturlar deyarli hamma ekoturistik sayyohlikning asosi hisoblanadi. Ekoturistik marshrut – sayyoohlarning muayyan yo‘nalish bo‘yicha tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi, sog‘lomlashishi, ma’rifiy-ma’naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni



amalga oshirish kabi maqsadlarni ko‘zlagan ekologik yo‘sindagi harakat yo‘nalishlari. Ekoturistik marshrutlar tushunarli va ommabop bo‘lishi uchun turning konsepsiysi to‘laligicha yoritib berilishi, sayohatning ijobiy tomonlarini namoyon qilishi, servis va qulayliklarning optimal xususiyatlarini belgilab berishi kerak. U, yuqorida zikr etilganidek, turli maqsadda, turli yoshdagi yoki ijtimoiy holatdagi kishilarning imkoniyat darajasiga qarab amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ko‘pgina holatlarda ekoturistik marshrutlarni qiziqarli, keng ko‘lamli va daromadli qilish uchun ular boshqa turdagti turistik marshrutlar bilan qo‘sib olib boriladi.

## **2-bob bo‘yicha xulosa**

Samarqand viloyatida 2014 yilda 35642,0 mln. so‘mlik turizm xizmatlari ko‘rsatilgan. Turizm xizmatlari ko‘rsatish hajmi viloyatda 2007 yilga nisbatan 2014 yilda 24594,3 mln. so‘m ko‘paygan, bu esa 2007 yilga nisbatan 2014 yildaturizm xizmatlari ko‘rsatish hajmi 1,5 barobarga ko‘payganidan dalolat beradi. Ko‘rsatilgan turizm xizmati eksporti 2014 yilda 12401,0 ming dollarni tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 100,5 foizga oshgan.

Samarqand viloyatida turizm xizmatlari hajmining oshishi hamda ko‘rsatilgan turizm xizmati eksportining yuksalib borishida turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi sub’ektlarning soni, ular tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar assortimenti, sotishni rag‘batlantirish kabilar muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasida biznes yurituvchilar soni ham yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Bunda ushbu sohada yaratilgan qulay biznes muhit, turizm xizmatlariga bo‘lgan talabning oshib borishi muhim omillardan bo‘lib xizmat qilmoqda. 2014 yilda Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan turizm sohasidagi firmalar soni 163 tani, mehmonxonalar soni 86 tani tashkil etmoqda.

Samarqand viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlarning 61,0 foizini chet ellik turistlar, 39,0 foizini mahalliy turistlar tashkil etmoqda (2014 yil). Samarqand

viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlarning umumiy soni 2007 yilda 95,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2014 yilda 161,3 kishini tashkil etgan. Eng quvonarlisi keyingi uch yil ichida mahalliy turistlar soni keskin o‘sib bormoqda.

Ekoturistik rayonlarning tavsifini berishda eng avvalo ekoturistik resurslar, ya’ni tabiat manzarasining asosini tashkil etuvchi “omillar”- relef xususiyati, suv resurslari, iqlim hamda o’simlik qoplami alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ekoturistik rayonlardagi geoekologik vaziyat ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu ilmiy ish asosida ekoturizm yo‘nalishi bo‘yicha masshtabi 1:1 000 000 bo‘lgan O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari va marshrutlari kartasini yaratish – loyiha ishi amalga oshirildi. Ekoturistik kartada yurtimizning boy va betakror tabiatini chet el turistlariga ko‘rsatish uchun sayohatlarni uyushtirishda, qulaylik yaratishni ko‘zda tutib, ajratilgan taksonomik birliklar va ekoturistik marshrutlar o‘z aksini topgan. Tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashda yuzaga keladigan ekologik munosabatlarni boshqarish va tartibga solishda ekoturistik marshrutlarni ko‘rsatuvchi kartaning ahamiyati katta.

2014 yil ma’lumotlariga ko‘ra Samarqand viloyatida 62 tasi turfirma va turagentlar, 90 tasi mehmonxonalar, 11 tasi sanatoriya kurort muassasalari bo‘lgan. Asosiy o‘rinda joylashtirish vositalari hamda shunga o‘xshashlar egallamoqda. Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik sub’ektlarining asosiy qismini kichik beznis va xususiy tadbirkorlar tashkil etadi.

Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlar soni o‘zidan-o‘zi oshib bormaydi. Bu esa ushbu bozorda, ya’ni turizm xizmatlar bozorida talab hajmi bilan bog‘liqdir. Talab hajmi tashrif buyurayotgan turistlar soni bilan bog‘liq. Samarqand viloyatiga kelayotgan turistlar sonida ham o‘sish ko‘zatilmoqda. 2014 yilda viloyatimizga kelgan jami turistlar soni 161,3 ming kishini tashkil etgan.

### **3-BOB. O'ZBEKISTON XUDUDIDAGI ASOSIY EKOTURISTIK RESURSLAR ASOSIDA TURISTIK MARSHRUTLARNI TAKLIF ETISH**

#### **3.1. Yangi ekoturistik turmarshrutlar yaratish imkoniyatlari**

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur o'zgarishlar keyingi yillarda turizm sohasiga ham o'z ijobjiy ta'sirlarini o'tkazmoqda. O'zbekiston uchun nisbatan yangi va endi rivojlanib, o'z mavqeini mustahkamlab borayotgan va shu bilan bir qatorda, istiqboli juda porloq sohalardan biri turizm hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda turizmni bir nechta yangi turlarini shakllantirishga doir bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, o'z tarkibi jihatidan har xil, turli-tuman, o'zaro bir-biri bilan bog'langan va bir-birini taqozo qilgan ko'plab quyi tizimlardan iborat. Shuningdek turizmning bir nechta turlari ham mavjud. Zamonaviy turizmni o'ziga xos xususiyatlari uning turlari bilan ham tavsiflanadi. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda turizmni tasniflashning bir nechta belgilarga ko'ra bir qator turlari keltirilmoqda. Birgina turizmning o'zi maqsadi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

- rekreatsion;
- sog'lomlashtiruvchi dam olish;
- bilimini oshiradigan dam olish;
- malakaviy ish turizmi;
- ilmiy turizm;
- sport turizmi;
- shop-turlar;
- sarguzashtli;
- zayorat safari;
- qo'msash;
- ekoturizm;
- ekzotik.

Ushbu turizm turlarining aksariyatini bugungi kunda O‘zbekistonda tashkil etishning imokniyatlari juda yuqoridir. Ayniqsa, ekoturizm, rekreatsion, ilmiy turizm turlarini rivojlantirish potensiali juda yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizda sportga berilayotgan e’tibor, ayrim sport turlari bo‘yicha qit’a va jahon musobaqalariga O‘zbekistonning mezbonlik qilishi sport turizmning rivojlanishiga, savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy erkin zonalarning tashkil etilishi, logistik tranzit yuklarning saqlanishi va qo‘shti mamlakatlar hududiga o‘tkazilishi, Toshkent shahrida halqaro logistik markazning tashkil etilishi shop-turlarning shakllanishiga, islom olamiga mashhur allomalarining qabrlarining tiklanishi ziyyarat safarining tashkil etilishiga zamin yaratib bermoqda. Bular orasida o‘zining eng katta potensial imkoniyati bilan ajralib turadigan, mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlari hududlarida rivojlantirish mumkin bo‘lgan turizm turi bu ekoturizmdir.

O‘zbekistonda ekologik turizm bugungi kunda keng rivojlanib, o‘lkamiz tabiatining o‘ziga xosligi ko‘pchilikni hayratda qoldiradi. Binobarin, geografik va tabiiy sharoitlar ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qo‘laydir. Bu yerda bir paytning o‘zida cheksiz sahrolarni ham baland qorli tog‘lar, vodiylar, suvi mo‘l daryolarning betakror go‘zalligini ham uchratish mumkin.

Birgina Jizzax viloyatida ekoturizm Nurota tog‘ tizmasida “Nurota-Qizilqum biorezervati” hududida tashkil etilgan bo‘lib, qolgan joylarda stixiyali, ya’ni ichki turizm rivojlangan. Viloyatning 10 ga yaqin mehmonxonalarida yiliga 35 mingdan ortiq sayyoh qabul qilish rejalashtirilgan bo‘lib, bu asosan, “Davlat muhofazasi ruyxati”ga kiritilgan muqaddas qadamjolarga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni, hududda 42 ta tarixiy obida muqaddas ziyyaratgoh, 267 ta arxeologik manzilgoh, 63 ta monumental yodgorlik – haykallar, byustlar, xotira maydonlari bo‘lib, turizmning asosini tashkil etadi<sup>2</sup>.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning Turkiston tog‘ tizmasi etaklarida joylashgan o‘zining so‘lim va betakror tabiatni, shifobaxsh havosiyu buloqlari bilan

---

<sup>2</sup> Aliqulova B. Turizm taraqqiyoti: iqtisodiyot rivojiga muayyan hissadir. Jamiyat gazetasi. 2014 yil 18 aprel №16

ma'lum va mashhur Zomin, Baxmal tumanlarida ekoturizmni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bunda sayohat uch ekologik yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi. Bular Jizzax-Pishog'or-Xo'jasarov ota ziyyaratgohi va Pishog'or qishlog'i bashlanishidagi g'or, Jizzax-Zomin-Milliy bog'-Zomin muzeyi va ming yillik yong'oq hamda Zomin davlat qo'riqhonasi hudidi yo'nalishlari. Ekoturizm marshrutlarida hududlarga ortiqcha o'zgarishlar kiritilmaydi. Ya'ni, mehmonxona, restoran va maishiy xizmat ko'rsatish uchun alohida binolar qurilmaydi, balki shu hududdagi aholining turmush tarziga xos ravishda ekosayyohatlar kutib olinadi, shu turmush tarziga xos yashashi ta'minlanadi.

Ekoturistlar ushbu hududlarning betakror tabiatini bilan birga aholining qadimiy madaniyatini va tarixini o'zida mujassamlashtirgan turli an'ana va udumlarning, to'ylar va bayramlarning ishtirokchilariga ham aylanadilar. Shuningdek, mahalliy aholi tomonidan dasturxonga tortilgan tandir kabob, qimiz, beshbarmoq, suzma, qurut kabi ekologik toza va shifobaxsh taomlardan bahramand bo'lishadi yoki xohishlariga ko'ra ushbu taomlar tayyorlash jarayonida ishtirok etishadi. O'tov muzeylarida saqlanayotgan so'zana, do'ppi, qamchi kabi halq san'ati ijodiyotini tomosha qilishlari va harid etishlari mumkin.

Bundan tashqari Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida ham ekoturizmni rivojlantirish bilan bog'liq tabiiy va geografik ob'ektlar yetarli darajadadir. Qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, tog'lar, sahro, ko'llar, g'orlar, to'qayzorlar asosiy ekoturizmni tashkil etish ob'ektlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda sanab o'tilgan hududlarda ekoturizmni tashkil etishning asosiy shartlaridan biri bu ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish va ularni ommalashtirishdir. Ekoturistik marshrutlar yoki ekoturlar deyarli hamma ekoturistik sayyohlikning asosi hisoblanadi.

Marshrutlarning uzoq-yaqinligiga qarab inson harakat vositasini tanlaydi. Masalan: Samarqanddan Jizzaxga boruvchi kishi avtomobil, avtobus yoki poyezd transporti turlaridan birini tanlaydi. U Samarqanddan Jizzaxga samaolyotda borish uchun harakat ham qilmaydi. Chunki Jizzaxga samaolyotda borish marshrutining

yo‘qligini yaxshi biladi. Lekin, Jizzaxga Samarqanddan velosiped, matotsikl, arava, ot, eshak yoki tuya bilan ham borish mumkin. Bu insonning ilmiy-texnika taraqqiyoti davrigacha bo‘lgan harakatlanishda foydalilanilgan transport turlaridir.

Ekoturistik marshrut – sayyoohlarning muayyan yo‘nalish bo‘yicha tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi, sog‘lomlashishi, ma’rifiy-ma’naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadlarni ko‘zlagan ekologik yo‘sindagi harakat yo‘nalishlaridir. Ekoturistik marshrutlar tushunarli va ommabop bo‘lishi uchun turning konsepsiysi to‘laligicha yoritib berilishi, sayohatning ijobiy tomonlarini namoyon qilishi, servis va qulayliklarning optimal xususiyatlarini belgilab berishi kerak. U, yuqorida zikr etilganidek, turli maqsadda, turli yoshdagi yoki ijtimoiy holatdagi kishilarining imkoniyat darajasiga qarab amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ko‘pgina holatlarda ekoturistik marshrutlarni qiziqarli, keng ko‘lamli va daromadli qilish uchun ular boshqa turdagи turistik marshrutlar bilan qo‘shib olib boriladi.

Ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Ekoturizmni boshqa turizm turlari bilan birgalikda olib borish, ya’ni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazardan ko‘pchilik hollarda ekoturizmni tarixiy, diniy, ma’naviy-ma’rifiy turizm bilan birga olib borish, ekoturistik marshrutda bir nechta turizm turlari majmuasi bo‘lishi samaralidir;

2. Madaniylashtirilgan landshaftlarda agroekoturistik imkoniyatlarning yuqoriligini hisobga olgan holda ekoturistik marshrutlarga agroekoturistik landshaftlarni (masalan, suv omborlari, qo‘riqxonalar, ekinzorlar) kiritish;

3. Geotizimlarning antropogen, tabiiy va tabiiy-texnogen o‘zgaruvchanlikni hisobga olish;

4. Ekoturistik marshrutlardan kelgan foydaning ma’lum bir qismini ekoturistik ob’ektdagi tabiatni muhofaza ishlariga qaratish lozim;

5. Ekoturistik marshrtlarda noyob fauna va floraning kamyob, O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan turlarning ko‘payishi, oziqlanishiga xalaqit bermaslik,

ularga ziyo yetishiga qarshi chora-tadbirlar, ogohlantirish belgilari, asosiy qoidalar bilan sayyohlarni tanishdirish va buning nazoratini olib borish.

6. Ekoturistik marshrutlarda mahalliy aholining ekologik ongi va madaniyatini oshirishga ham qaratilgan tadbirlar, joylarda davra suhbatlari tashkil etish, noyob ekologik tizimlarni asrab avaylash masalasiga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiqdir.

### **3.2. Turistik marshrutlar tashkil etishning iqtisodiy asoslari**

Inson hozirda Samarqanddan Jizzaxga borish uchun harakatlanish vositalarining eng tezkoridan foydalanadi. Vaqtdan foydalanish nuqtai-nazaridan o‘tmishdagi asosiy transport vositalaridan umuman foydalanmaydi. Shuningdek, Jizzaxga zamonaviy transport vositalari bilan qisqa muddatlarda yetib borgan inson shahar atroflaridagi tog‘larga chiqmoqchi bo‘lsa, o‘z o‘tmishidagi asosiy transport vositalari (ot, eshak, arava, tuya)dan foydalanishga majbur. Bu mahalliy transport vositalarining esa o‘z yo‘li – marshrutlari bor. Demak, insonning harakatlanishi – vaqt davomida tezlashib borib, sharoit bo‘yicha sekinlashadi, marshrutlar esa deyatrli o‘zgarmasdan yoki texnik, qulaylik jihatdan o‘zgarishi mumkin ekan. Aniqrog‘i, marshrutlar (yo‘llar) insonning texnika yordamida yoki piyoda, yoki hayvonlar yordamida yuradigan, harakatlanadigan yo‘lidir.

Turistik marshrutlar ishlab chiqish qandaydir nazariyaga yoki biror-bir standart, qolipga bo‘ysunmaydi. Turistik marshrutlarga bo‘ysunadigan standartlar marshrutning texnik jihatlaridir. Hozirgacha turistik marshrtlarni ishlab chiqishning tamoyillari yaratilganki, turizm sohasida har qanday marshrut ishlab chiqishda asosan ana shu tamoyillar asos qilinib olinadi. Bu tamoyillar quyidagilardir:

1. Jozibadorlik, betakrorlik, tamoyili.
2. Imkoniyatlarning yaratilganligi tamoyili.
3. Mazmundorlik tamoyili.
4. Faoliyatlilik tamoyili.
5. Ko‘pqirralik, ko‘pvariantlilik tamoyili.

6. Qulaylik tamoyili.

7. Axborotlanganlik tamoyili.

Marshrut ishlab chiqish bu turni ishlab chiqishdir. Har qanday turlar ham o‘ta darajada puxta, har tomonlama qulaylik imkoniyatlariga ega bo‘lgan marshrutlar asosida amalga oshirilishini talab qiladi. Turistik marshrulgarning mukammal bo‘lishi bu turistning erkin harakat qilishini va turxizmatlariga bo‘lgan talablarini o‘z vaqtida qondiradi.

1. Ekologik marshrulgarning jozibadorligi, betakrorlik tamoyili talablari haqida ta’riflashni batafsil keltirishga izoh bu yerda ortiqchalik qilsa kerak. Ekoturizmning kelib chiqishi ham ham insonning tabiatni sog‘inish, hozirgi sivilizatsiya bo‘hronlaridan (atmosferaning ifloslanishi, yerkarning ishdan chiqib borayotganligi, noyob o‘simlik va hayvonotning insondan uzoqlashib borayotganligi, toza havoning yetishmayotganligi va hakozolar) charchaganligidan, inson tabiatning toza havoli tabiiy mintaqalariga sayohatni hohlaganligidan kelib chiqdi. Bu soha marshrutlarini tuzganda tabiatdagi jozibadorlik – betakrorlikning o‘zi ham tabiiy mintaqalarning o‘ziga xos bo‘lgan landshaftlari shu mintaqada yashovchi hayvonlarga qiziqish va ko‘rishga intilish jihatlarini hisobga olish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ekologik marshrutlar tuzishda jozibadorlik va betakrorlik ko‘rinishlari O‘zbekistondagi 5 ta tabiiy ekologik mintaqada mavjud. Shuning uchun ham ekologik maskanlarga – resurslarga marshrut tuzishda, bu tamoyilni qo‘llashning kutilgandan ziyoda bo‘lgan imkoniyatlari bor. Eng muhim marshrut tavsifida ekologik resursdagi jozibador va betakror tabiiy ko‘rinishlar birinchi navbatda rasmlar tasvirida berilishi lozim. Bu tipdagi marshrulgarni ishlab chiqishda albatda noyob hayvonot turlarining rasmlari, ta’riflari marshrut ma’lumotlarida berilishi maqsadli bo‘ladi.

Shuningdek, ekoturizm marshrutining mavzusidagi asosiy obektlar bilan qo‘sishma ob’ektlarni va marshrutdagi ekskursiya ob’ektlarini majmuali xolda ham reklamaga berish mumkin. Bu holatda har bir ob’ekt alohida – alohida ranglarda berilishi tushunarli va diqqat – e’tiborli bo‘ladi.

2. Imkoniyatning yaratilganligi tamoyilida ekoturizm resursiga marshrutlar ishlab chiqish juda jiddiy masala. Bu tamoyilga amal qilib ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda quyidagi imkoniyatlar bo‘lishi talab qilinadi:

- ekoturizm maskanlariga kirishning huquqiy-qonuniy tartiblari yaratilganligi;
- ekoturizm maskanida turistlar uchun maxsus marshrutlarning (so‘qmoqlar, yo‘llar, dam olish joylari) ishlab chiqilganligi va harakatdaligi;
- ekoturizm maskanlarida turistlarga xizmatlar ko‘rsatish tizimlarining tashkil qilinganligi (dam olish, tunash, ovqatlanish, transport xizmati, ko‘ngil ochar o‘yinlar, qisqa muddatli ekskursiyalar va hakozo).

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda Davlat muhofazasidagi tabiat landshaftlariga turistlar kiritilishining huquqiy – qonuniy me’yorlari ishlab chiqilmagan. Bu me’yorlar endi yaratilmoqda. Demak, bu ekoturizm maskanalaridan ekoturizmda foydalanishning eng muhim imkoniyati yo‘q. Shuning uchun ham bu tamoyilning talablari amalda bajariladigan ekoturizm resurslariga- ob’ektlariga turistik marshrutlar ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

3. Mazmundorlik tamoyili o‘z talablari jihatidan jozibadorlik va betakrorlik tamoyiliga qo‘silib ketadi. Tabiatdagи betakrorlikni ko‘rgan, uning go‘zal bag‘rida dam olgan, rang-barang o‘simliklar olami va hayvonot dunyosini ko‘rgan turist ruhiy jihatdan ham jismoniy jihatdan ham turistik marshrutning mazmunli o‘tganligini his qiladi. Uning kayfiyati yaxshilanib o‘zida boy tasurotlar paydo bo‘lganligini sezadi.

Shuning uchun ham ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda marshrut bo‘ylab o‘zgarayotgan tabiat elementlarigacha marshrut tuzuvchi e’tibor berishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, marshrut yo‘nalishida turizmning boshqa resurs manzillari (ziyortagoh joylar, taniqli insonlar qabri, mashhur kishilar nomi bilan bog‘liq obidalar, tarixiy-madaniy me’moriy obidalar va boshqalar) bo‘lsa, albatda marshrutning ma’lumotlariga qisqacha ta’rif bilan kiritish foydali bo‘ladi.

4. Faoliyatlilik tamoyilida ekoturizm marshrutlarining harakatlanish vaqtleri, muddatlari tushuniladi. Fasllarimiz almashib turganligidan ekoturizm

marshrutlarini tuzishda bu tamoyilga jiddiy e'tibor berish talab qilinadi. Chunki ekoturizmning muhim resurslari bo'lgan tog' hududlaridagi ekoturizm resurslariga qishki marshrutlar ishlab chiqishda turistlarning hayoti xavfsizliklarini ta'minlash masalasi birinchi navbatdagi o'ta jiddiy masaladir.

Tog'lardagi ekoturizm resurslariga yetib borishda avtoyo'llarda muzlagan qor qatlamlarining uzoq muddatlarda erimasligi, baland dovonlardan har qanday transport vositalarining chiqaoqlasligi, tog'dagi marshrut so'qmoqlarining qor bilan ko'milib qolishi, qor ko'chkilari turistlar hayotiga jiddiy xavf soladi. Shuning uchun ham tog' hududlariga qish mavsumida ekoturizm marshrutlarini tashkil qilishda chegaralanish muddatlarini aniq belgilash ekoturizmda jiddiy ahamiyatga egadir. Tog' hududlariga kech bahor faslidan to kech kuz mavsumlarigacha ekoturizm marshrutlarini tashkil qilish maqsadli bo'ladi.

Ekoturizm marshrutlarini O'zbekistonidagi boshqa tabiiy mintaqalardagi ekologik maskanlarga ishlab chiqilganda ham bu ekoturizm maskanlarida yil fasllaridagi iqlimiylar xususiyatlarni hisobga olish, tur marshrutning harakatlanish holatlarini aniq bilish talab qilinadi.

5. Ko'pqirralilik, ko'p variantlilik tamoyili bo'yicha ekoturizm marshrutlari quyidagi variantlarga bo'linadi.

1. Faqat quruqlik bo'ylab ekoturizm maskaniga borish.
2. Havo transporti yordamida ekoturizm maskaniga borish.
3. Suv marshruti orqali ekoturizm maskaniga borish.
4. Aralash transport vositalaridan foydalanib ekoturizm maskaniga borish.

Qayd qilingan yo'nalishlar bo'yicha ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tushunarli. Bu ishlab chiqarish tamoyilining ko'p variantligiga qarab turist yoki touristik guruhning talabi, hohish-istiklari bo'yicha ular hohlagan ekoturizm marshrutlari bo'lishi mumkin. Bu marshrutlar tabiiy muhit-sharoit, yo'l-yo'lakay turli-tuman ob'ektlarini ko'rish imkoniyatlari bo'lganligidan ko'p qirralikga ham kiradi. Shu bilan birga ekoturizmning ko'pqirralilik tamoyili marshrut ekoturizmning asosiy ob'ektiga borguncha turizmning boshqa resurslariga ham

kirib o‘tishni ham ta’minlaydi. Bu haqda ekoturizm marshrutlarini tuzishda mazmundorlik tamoyilini qo‘llash qismida zarur talablar haqida izoh berildi.

6. Ekoturizm marshrutlarida qulaylilik tamoyilini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyilda ekoturizm marshrutlarida quyidagi qulaylilik manbalari yaratish lozim bo‘ladi:

1. Transport va transport xillaridan foydalanishdagi qulaylilik.
2. Marshrut davomida xizmatlarni qabul qilish qulayligi.
3. Marshrut davomida dam olish, ko‘ngil ochar o‘yinlarga qatnashish, ekskursiyalarga chiqish, ovqatlanish yoki tunab qolishdagi qulayliklar.
4. Marshrut davomida tibbiy yordamni olish qulayligi.

Marshrut davomida turist uchun minimum (termosda choy, palatka, yotib dam olish uchun yig‘ma karovat, biroz qattiq ovqat, qatiq, sharbatlar tuxum) va optimum (Mehmonxonada tunash, restoranda ovqatlanish, sport zalda mashq qilish, basseynda cho‘milish) qulayligi puxta ishlab chiqilishi lozim.

7. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda axborotlanganlik tamoyilini qo‘llash marshrutni o‘ziga xos ravishda reklama qilish, turizm bozoriga kiritish ham hisoblanadi. Bu tamoyilda marshrut haqidagi barcha ma’lumotlar turist uchun muhayo qilinishi kerak – broshyura, jurnal, buklet, gazeta, radio, televedeniya. Turist marshrutda nimalarni ko‘radi, nimalar haqida ma’lumotlar eshitadi, qanday yuradi, qaysi kiyimlar kerak bo‘ladi, qanday transport vositalari taklif qilingan, qaysi xil ovqatlar ichimliklar tayyorланади, qanday dam oladi ovqatlanish tartibi qanday tashkil qilinadi va hakozolarga – hammasiga javob bo‘lishi shart bo‘ladi.

Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillaridagi talablarni o‘rganib tahlil qilganimizda har bir tamoyilning marshrutda muhim o‘rni borligini anglaymiz. Bu tamoyillarni asos qilib olib ishlab chiqilgan marshrut o‘zida marshrutning barcha talablarini majmuali ravishda mujassamlashtirgan bo‘ladi, ekomarshrutning reklamaligi qimmatini, ahamiyatini oshiradi.

### **3.3. Ekoturistik resurslar asosida turistik marshrutlarni taklif etish**

Bugungi kunda Aydarko‘l suv havzasiga bir nechta turistik marshrutlar ochilgan bo‘lib ularning eng asosiylaridan biri suv havzasidan 7 km uzoqlikda joylashgan “Aydar” lageri bo‘lib Nurota shahridan 60 kilometr uzoqlikda joylashgan. Ushbu turistik marshrut 15 ta yurta-chodirlardan iborat bo‘lib, qo‘srimcha yana 6 ta yurta-chodirga kengayish imkoniyati mavjud. “Aydar” lageri Qizilqum cho‘lining markazida joylashgan bo‘lib bu yerda turli cho‘l jonivorlari, o‘simgulkari, eng asosiysi uning yo‘lida YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan Sarmish botig‘i mavjud bo‘lib, bazalt qoyalarda ibtidoiy jamoa tuzumiga tegishli bo‘lgan petrogliflar, qoyatosh rasmlari, ov rasmlari mavjud.

Samarqand – Nurota – Samarqand turistik murshruti asosida ishlangan dastur bo‘yicha ushbu turning davomiyligi 3 kun bo‘lib qiymati 365AQSH dollaridan guruhli turlar uchun 113 AQSH dollarigacha. (3.3.1-jadval).

<b>Guruhdagi sayyoqlar soni</b>	<b>Turning qiymati, AQSH doll</b>	<b>1 kishi uchun sarflanadigan harajat miqdori AQSH doll (tushlik ovqatlanishdan tashqari)</b>	<b>Komissiya harajatlari 12% + boshqa harajatlar 8AQSH doll</b>
1 nafar	365	365,0	416,8
2 nafar	214	107,0	127,8
3 nafar	163	54,3	68,8
4 nafar	138	34,5	46,6
5 nafar	123	24,6	35,6

Ushbu turning 1 kuni sarmish botig‘ining qoyatosh suratlari, turli rasmlarini tomoshi qilishga ketadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Aydar” lageri ko‘lning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, ko‘lning rivojlanayotgan qismidir. Bundan tashqari ushbu lager mamlakatimizning yirik turistik shaharlari hisoblangan Toshkent,


Samarqand, Buxoro va Hiva shaharlariga transport-kommunikatsiyasi teskari joylashgan.


Aydarko‘l suv havzasining shakllanishi 1960 yillardan boshlanib, Arnasoy botig‘idagi Aydarko‘l, Sho‘rko‘l va Tuzkon ko‘llariga Sirdaryo suvlarining oqib kelishi natijasida yuzaga kelgan. Bugungi kunda ushub ko‘llar o‘rtasida chegaralar tutashib ko‘l maydoni 3 ming kv.km ga teng yirik havzani egallagan. Ko‘lning Jizzax viloyati hududidagi qismi betakror tabiat, noyob o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega. Ko‘lning qirg‘oqlari dengiz fordлari kabi quruqlikka chuqur kirib borgan.

Bundan tashqari Aydarko‘l suv havzasiga olib boradigan transport kommunikatsiya yo‘llari asosan Jizzax-Paxtakor-Aydarko‘l va Jizzax-Paxtakor-Do‘stlik–Aydarko‘l marshrutidan iborat bo‘lib, uning uzunligi Jizzax-Paxtakor-Aydarko‘l bo‘yicha 52,4 km, va Jizzax-Paxtakor-Do‘stlik–Aydarko‘l bo‘yicha 70,8 km ga teng.

Shuningdek, ushbu marshrutlar asosan aholi punktlari orqali o‘tadi va ekoturistik ahamiyati past. (3.3.1-rasm)

Shu sababli tadqiqot ishida yuqoridaagi jihatlar e’tiborga olingan holda mukammalroq ekoturistik marshrut ishlab chiqildi.





## **Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ushbu ekoturistik marshrut quyidagi afzalliklarga ega:**

1. Biz ishlab chiqqan ekoturistik marshrutning uzunligi 41,6 km bo‘lib asosan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘llardan o‘tadi.
2. Ushbu marshrut Aydarko‘l havzasida yangidan shakllangan tabiat, fauna va flora bilan hamohang bo‘lib, bu yerda shakllangan tabbiy va antropogen landshaftlarni kuzatish imkonini beradi.
3. Ushbu marshrutning davomiyligi 2 kun bo‘lib, ichki sayyoohlар uchun qulay imkoniyat yaratib beradi;
4. Ushbu marshrut ayniqsa Toshkent, Samarqand va Jizzax viloyatining sayyoohlari, ilmiy tadqiqotchilar, izlanuvchilar uchun juda qulay bo‘lib, dam olish kunlari rejalashtirilganda ish rejimiga salbiy ta’siri bo‘lmaydi;
5. Ushbu turistik marshrutni yo‘lga qo‘yish natijasida xorijiy turistlarning harajatlari 2 nafargacha bo‘lgan guruhda 54,1 AQSH dollari, 3 nafargacha bo‘lgan guruh tashkil etgan taqdirda 11 AQSH dollariga kamayadi.

### **3.3.2-jadval.**

#### **Taklif etilayotgan ekoturistik marshrutning iqtisodiy samaradorligi**

Guruhdagi sayyoohlар soni	Turning qiymati, AQSH doll	Taklif etilayotgan marshrut harajatlari miqdori AQSH doll	“Aydar” lageriga uyushtirilgan marshrut harajatlari	Iqtisodiy samaradorlik
5 nafar	240,0	48	35,6	+12,4
4 nafar	204,0	51,0	46,6	+4,4
3 nafar	173,4	57,8	68,8	-11
2 nafar	147,4	73,7	127,8	-54,1
<b>Jami iqtisodiy samara</b>				<b>-48,3</b>

### 3.3.3-jadval.

#### Jizzax shahri–Aydarko‘l so‘v havzasi ekoturistik marshruti bo‘yicha turistlar va sayyoohlarga xizmat ko‘rsatish dasturi

<b>Kunlar</b>	<b>Harakatlanish vaqtি</b>	<b>O‘tkaziladigan tadbirlar</b>
2 kun	07 <sup>:00</sup>	Avtoparkda yig‘ilish va yo‘lga chiqish.
	9 <sup>:00</sup>	Jizzax shahriga yetib kelish
	9 <sup>:20</sup> :10 <sup>00</sup>	Mahalliy restoranda milliy taomlardan tanavvul qilish
	10 <sup>:20</sup>	Aydarko‘l suv havzasiga jo‘nab ketish
	12 <sup>:00</sup> :13 <sup>00</sup>	Tabiat qo‘ynida tushlik
	13 <sup>:30</sup> :13 <sup>00</sup>	Aydarko‘l suv havzasiga yetib kelish va joylashish
	14 <sup>:30</sup> :17 <sup>00</sup>	Aydarko‘l suv havzasiga sayohat, baliq ovi
	17: <sup>20</sup>	Yurta-lagerga qaytib kelish
	18 <sup>:00</sup> :19 <sup>00</sup>	Kechqurungi nonushta (baliq taomlari tanavvul qilish)
	19 <sup>:00</sup> :21 <sup>00</sup>	Milliy qo‘sish va ansambl tomoshalari
	7: <sup>30</sup>	Yurta-lagerdan chiqish
	8 <sup>:00</sup> :9 <sup>00</sup>	Ertalabki nonushta (milliy patir, ayron, qimiz va qo‘y suti)
	9 <sup>:30</sup> :12 <sup>00</sup>	Suv havzasi bo‘ylab sayohat, otlarda sayr qilish
	12 <sup>:25</sup> :13 <sup>:25</sup>	Tabiat qo‘ynida Tushlik.(kabob va ayron tanavvul qilish)
	14 <sup>:30</sup> :17 <sup>00</sup>	Jizzax shahriga qaytish
	17 <sup>:10</sup>	Avtoparkga yetib kelish.

### **3-bob bo‘yicha xulosalar**

Birgina Jizzax viloyatida ekoturizm Nurota tog‘ tizmasida “Nurota-Qizilqum biorezervati” hududida tashkil etilgan bo‘lib, qolgan joylarda stixiyali, ya’ni ichki turizm rivojlangan. Viloyatning 10 ga yaqin mehmonxonalarida yiliga 35 mingdan ortiq sayyoh qabul qilish rejalashtirilgan bo‘lib, bu asosan, “Davlat muhofazasi ruyxati”ga kiritilgan muqaddas qadamjolarga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni, hududda 42 ta tarixiy obida muqaddas ziyoratgoh, 267 ta arxeologik manzilgoh, 63 ta monumental yodgorlik – haykallar, byustlar, xotira maydonlari bo‘lib, turizmning asosini tashkil etadi

O‘zbekistonda ekologik turizm bugungi kunda keng rivojlanib, o‘lkamiz tabiatining o‘ziga xosligi ko‘pchilikni hayratda qoldiradi. Binobarin, geografik va tabiiy sharoitlar ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qo‘laydir. Bu yerda bir paytning o‘zida cheksiz sahrolarni ham baland qorli tog‘lar, vodiy va vohalar, suvi mo‘l daryolarning betakror go‘zalligini ham uchratish mumkin.

Ekoturistik marshrut – sayyoohlarning muayyan yo‘nalish bo‘yicha tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi, sog‘lomlashishi, ma’rifiy-ma’naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadlarni ko‘zlagan ekologik yo‘sindagi harakat yo‘nalishlaridir. Ekoturistik marshrutlar tushunarli va ommabop bo‘lishi uchun turning konsepsiysi to‘laligicha yoritib berilishi, sayohatning ijobiylarini namoyon qilishi, servis va qulayliklarning optimal xususiyatlarini belgilab berishi kerak. U, yuqorida zikr etilganidek, turli maqsadda, turli yoshdagi yoki ijtimoiy holatdagi kishilarning imkoniyat darajasiga qarab amalga oshirilishi maqsadga muvofiq

Ekologik marshrutlar tuzishda jozibadorlik va betakrorlik ko‘rinishlari O‘zbekistondagi 5 ta tabiiy ekologik mintaqada mavjud. Shuning uchun ham ekologik maskanlarga – resurslarga marshrut tuzishda, bu tamoyilni qo‘llashning kutilgandan ziyoda bo‘lgan imkoniyatlari bor. Eng muhim marshrut tavsifida ekologik resursdagi jozibador va betakror tabiiy ko‘rinishlar birinchi navbatda rasmlar tasvirida berilishi lozim. Bu tipdagи marshrutlarni

ishlab chiqishda albatda noyob hayvonot turlarining rasmlari, ta’riflari marshrut ma’lumotlarida berilishi maqsadli bo‘ladi

Ishlab chiqqan ekorturistik marshrutning uzunligi 41,6 km bo‘lib asosan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘llardan o‘tadi. Ushbu marshrut Aydarko‘l havzasida yangidan shakllangan tabiat, fauna va flora bilan hamohang bo‘lib, bu yerda shakllangan tabbiy va antropogen landshaftlarni kuzatish imkonini beradi.

Ushbu marshrutning davomiyligi 2 kun bo‘lib, ichki sayyoohlар uchun qulay imkoniyat yaratib beradi, marshrut ayniqsa Toshkent, Samarqand va Jizzax viloyatining sayyoohlari, ilmiy tadqiqotchilar, izlanuvchilar uchun juda qulay bo‘lib, dam olish kunlari rejlashtirilganda ish rejimiga salbiy ta’siri bo‘lmaydi. Ushbu turistik marshrutni yo‘lga qo‘yish natijasida xorijiy turistlarning harajatlari 2 nafargacha bo‘lgan guruhda 54,1 AQSH dollari, 3 nafargacha bo‘lgan guruh tashkil etgan taqdirda 11 AQSH dollariga kamayadi.

## XULOSA

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur o‘zgarishlar keyingi yillarda turizm sohasiga ham o‘z ijobjiyyatasi o‘tkazmoqda. O‘zbekiston uchun nisbatan yangi va endi rivojlanib, o‘z mavqeini mustahkamlab borayotgan va shu bilan bir qatorda, istiqboli juda porloq sohalardan biri turizm hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda turizmni bir nechta yangi turlarini shakllantirishga doir bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizning go‘zal tabiat, noyob flora va faunasi, so‘lim tog‘lar, ko‘llar, suv omborlari, qo‘riqxonalar, umuman tabiiy va sun’iy landshaftlar asosida ekoturizmni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga erishildi.

**1. Ekoturizm** – shaxslarning dam olish, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lomlashish, ma’rifiy-ma’naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadda hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, atrof tabiatga qiladigan sayohatlari. Bundan kelib chiqqan tarzda ekoturizmning maqsadi – turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta’minlash.

**2. Ekoturistik marshrutlar** ishlab chiqishdagi asosiy talab yo‘nalishdagi jozibador, turistlar diqqatini tortadigan va qiziqtiradigan ob’ektlar va hududlarni belgilab olish hisoblanadi. Marshrut ishlab chiqilgandan keyin ham ushbu tur haqida imkon darajasida rangli bukletlar chop etishga e’tibor beriladi. Zero, bu bukletlar dastlabki turizm bozoriga chiqariladigan reklama mahsuloti ham hisoblanadi.

**3. Yurtimizning barcha viloyatlarida** ekoturizm markazlarini tashkil etish imkoniyati mavjud. O‘zbekistonda ekoturizmning imtiyozli tomoni shundaki, sayohatlarni deyarli butun yil davomida tashkil etish mumkin. Bahorda sahrolar va cho‘llar o‘ta chiroyli manzara kasb etadi, yoz faslining boshida esa o‘simgiliklar quriy boshlaydi va bu vaqtdagi tabiat manzarasi o‘zining jozibadorligini yo‘qotadi. Biroq aynan shu vaqtning o‘zida mamlakatimizning

tog‘li hududlarida dam olish sayyoohlар uchun qiziqarlidir. Sayyoohlarni jalg qilish uchun birinchi navbatda qulay xizmat ko‘rsatish sharoitlarini yaratish, ularni qulay transport vositalari bilan ta’minlash va albatta, O‘zbekistonning ekoturistik salohiyatini jahon miqyosida targ‘ib qilish zarur. Afsuski, mamlakatimizda ekologik turizmning hozircha ko‘proq tabiat ne’matlarini iste’mol qilish bilan bog‘liq shakllar (ovchilik, baliqchilik, rafting, trekking, piknik) tarqalgan bo‘lib, unda atrof muhitdan bevosita foydalanilmoqda.

**4.** O‘zbekiston hududini ekoturizm imkoniyatlarini o‘rganishda asosiy ilmiy izlanishlardan biri uning hududini ekoturizm nuqtai-nazaridan ekoturistik marshrutlar yaratishdir. Chunki bunda hududning ekoturistik qiymatini belgilovchi jami tabiiy geografik omillar tahlil qilinadi, resurslarning holati o‘rganiladi, baholanadi va ekoturlarni yuqori darajada o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan amaliy tadbirlar hisobga olinadi. Ekoturistik marshrutlarga bunday yondashuv ekoturizm uchun kelajakda foydalanish mumkin bo‘lgan hududlarni aniqlash, ekoturlar saviyasini ko‘tarish kabi amaliy vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi.

**5.** Ekoturistik rayonlarning tavsifini berishda eng avvalo ekoturistik resurslar, ya’ni tabiat manzarasining asosini tashkil etuvchi “omillar”- relef xususiyati, suv resurslari, iqlim hamda o‘simplik qoplami alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ekoturistik rayonlardagi geoekologik vaziyat ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu ilmiy ish asosida ekoturizm yo‘nalishi bo‘yicha masshtabi 1:1 000 000 bo‘lgan O‘zbekistonning ekoturistik rayonlari va marshrutlari kartasini yaratish – loyiha ishi amalga oshirildi. Ekoturistik kartada yurtimizning boy va betakror tabiatini chet el turistlariga ko‘rsatish uchun sayohatlarni uyuştirishda, qulaylik yaratishni ko‘zda tutib, ajratilgan taksonomik birliklar va ekoturistik marshrutlar o‘z aksini topgan. Tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashda yuzaga keladigan ekologik munosabatlarni boshqarish va tartibga solishda ekoturistik marshrutlarni ko‘rsatuvchi kartaning ahamiyati katta.

## **TAKLIFLAR**

O‘zbekiston hududidagi eksturistik resurslarni o‘rganish natijasida yangi ekoturistik marshrutlar ishlab chiqish borasidagi quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Eng avvalo mamlakatimiz hududidagi asosiy ekoturistik resurslar, ularning turlarini aniqlab, qanchalik darajada ekoturizm sifatida foydalanish mumkinligini baholash va ekoturistik haritani ishlab chiqish.

2. Ekoturizmni boshqa turizm turlari bilan kooperatsiyalashgan, ya’ni birgalikda turmarshurtlarni ishlab chiqish. Bunday turmarshurtlarda ekoturizm resurslari hamda tarixiy obidalar, qadimiy shaharlarimizga ekskursiyalar amalga oshiriladi. Masalan, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy obidalar, yodgorliklar bilan birgalikda yaqin hududlardagi ekoturistik resurslar asosida yangi turmarshurtlar ishlab chiqish. Jumladan quyidagi ko‘rinishdagi turmarshurtlar:

- A) “Fusunkor Zomin” turi 8 kun, 7 tun, Toshkent-Zomin-Nurota Samarqand;
- B) “ Zalvarli Urgut” turi 15 kun, 14 tun, Toshkent-Samarqand-Urgut, Nurota-Buxoro-Xiva-Toshkent.

3. O‘zbekistonning tekislik qismida Ustyurt, Orol va Orolbo‘yi, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon, tog‘ oldi – tog‘li qismida esa Mirzacho‘l, Arnasoy-Aydar, Sirdaryobo‘yi, Chirchiq-Ohongaron, Farg‘ona, O‘rta Zarafshon, Hisor, Qashqadaryo, Surxondaryo, tog‘li qismlarda Zomin, Nurota, Shoximardon, Tayanshan, Urgut, Nurobod, Denov, Boysin, Hisor, suv, ko‘l, daryo va suv omborlaridan Arnasoy, Sirdaryo, Aydarko‘l, Amudaryo, Zarafshon, Kattaqo‘rg‘on, Orol dengizi ekoturistik rayonlarini ajratish hamda haritasini tuzish va ekoturistik turmarshrut yaratish.

4. Biz ishlab chiqqan ekoturistik marshrutning uzunligi 41,6 km bo‘lib asosan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘llardan o‘tadi. Ushbu marshrut Aydarko‘l havzasida yangidan shakllangan tabiat, fauna va flora bilan hamohang bo‘lib, bu yerda shakllangan tabbiy va antropogen landshaftlarni kuzatish imkonini beradi. Ushbu marshrutning davomiyligi 2 kun bo‘lib, ichki

sayyohlar uchun qulay imkoniyat yaratib beradi va ushbu turistik marshrutni yo‘lga qo‘yish natijasida xorijiy turistlarning harajatlari 2 nafargacha bo‘lgan guruhda 54,1 AQSH dollari, 3 nafargacha bo‘lgan guruh tashkil etgan taqdirda 11 AQSH dollariga kamayadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O‘zbekiston", 2003.
- 2.“Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekistonning yangi qonunlari.-T.: Adolat, 2000, 131-140 b.

### **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari**

3. “O‘zbekturizm” MKsining tashkil topishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // “Xalq so‘zi”, 1992 yil 27 iyul.
4. “Buyuk Ipak yo‘liini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. // “Xalq so‘zi”, 1995 yil 3 iyun.
5. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005 yilgacha bo‘lgan davlat dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 15.04.1999 yildagi PF-№2286 farmoni. //Xalq so‘zi, №74. 1999. 16 aprel

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

- 6.“Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 346 sonli 8 avgustda qabul qilingan Farmoyishi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 1998 yil 9 avgust.

### **IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov**

#### **ma’ruzalari va asarlari**

7. I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009. -56 b.
8. I.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». -T.: O‘zbekiston, 2005 y. - 92 b.

9. I. Karimov. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. “Xalq so‘zi”, 2010 yil 28 yanvar
10. I. Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. ”Xalq so‘zi”, 2010 yil 30 yanvar.
11. I. Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. .”Xalq so‘zi”, 2011 yil 22 yanvar.
12. I.Karimov. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo‘lishi darkor. //Xalq so‘zi, 2006, 25-fevral.
13. I.Karimov. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. //Xalq so‘zi, 2006. 11-fevral
14. I.Karimov. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. //Xalq so‘zi, 2005. 8 dekabr
15. I.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlaktni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O‘zbekiston. 2005 y. -92 b.
16. I.Karimov. Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. –T: O‘zbekiston. 2003. -318 b.
17. I.Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O‘zbekiston, 2000.-350 b.

## **V. Maxsus adabiyotlar, ro‘znomalar va jurnallardagi maqolalar**

18. Azzamov X. Turizmning istiqbolli turi. Jamiyat gazetasi. 2014 yil 18 iyul 9 bet
- 19.Тухлиев Н. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития.-Т.: Гос. Науч. Изд-во “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006.-416 с.
20. География туризма: учебник / кол. авторов; под ред. А. Ю. Александровой.- М.: КНОРУС, 2008.-592 с.

21. Жулидов С.Б. The Travel and Tourism Industry: учеб. пособ. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. -207 с.
  22. Квартальнов В.А. Туризм: учебник.-2-е изд., перераб.- М.: финансы и статистика, 2007.-336 с.
  23. Косолапов А.Б. Туристское страноведение. Европа и Азия: учебно – практическое пособие. – 2-е изд., стер. / А.Б. Косолапов. – М.: КНОРУС, 2006. – 400 с
  24. Pardayev A, Norchayev A. Xalqaro turizm. Darslik. - Т.: TDIU, 2010, - 320 b.
  25. География туризма: учеб. /кол. Авторов; под ред. А.Ю. Александровой. 2-е изд., испр. и доп. - М.: КНОРУС, 2009. – 592 с.
  26. Косолапов А.Б. Технология и организация туроператорской и турагенсткой деятельности: учеб. пособ. - М.: КНОРУС, 2008. – 288 с.
  27. Леннон Дж. Д., Смит Х., Кокерелл Н., Трю Д. Управление индустрией туризма. Лучший опыт деятельности национальных организаций и агентство по туризму. – М.: «Группа ИДТ», 2008. – 272 с.
  28. Тимохина Т.Л. Организация приема и обслуживания туристов: учебное пособие. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 352 с.
  29. Скобкин С.С. Менеджмент в туризме: учеб. пособ. – М.: Магистр, 2007. – 447 с.
  30. Karimov I., Axmadxo'jayev R. Turizmda kommunikatsiya. - Т.: TDIU, 2007, - 180 b.
  31. Дурович А. П. Маркетинговые исследования в туризме: Учеб. пособ. — СПб.: Питер, 2008. — 384 с
  32. Adilova Z., Norchayev A., Aliyeva M. Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma -Т.: TDIU, 2009, - 180 b.
  33. Qutlimurotov F. Turizm iqtisodi. O‘quv qo‘llanma. -Т.: TDIU, 2009,- 220 b.
- VI. Statistik to‘plamlari**
34. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.

35. Экономический вестник.
36. Основные показатели развития туризма в 2009 г. ЮНВТО. –Мадрид, 2010, -30с.
37. Tourism: 2020 vision. -Madrid, 2010, - 21 p.
38. “O‘zbekturizm” MK yillik hisobotlari

## **VII. Internet saytlari**

39. [www.peugeotufa.ru](http://www.peugeotufa.ru)
40. [www.bashexpo.ru](http://www.bashexpo.ru)
41. [www.interunion.ru](http://www.interunion.ru)
42. [www.world-tourism.org](http://www.world-tourism.org)
43. [www.wttc.org](http://www.wttc.org)
44. [www.tag-group.com](http://www.tag-group.com)
45. [www.e-tours.ru](http://www.e-tours.ru)
46. [www.travel-library.com](http://www.travel-library.com)